

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
JIZZAX DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
TARIX FAKULTETI

«Himoya qilishga ruxsat beraman»
Tarix fakulteti dekani
_____ dots. A.Pardayev
«____» _____ 2019 y

**5141500 - Milliy g'oya ma'naviyat asoslari va huquq ta'lim yo'nalishi
bo'yicha bakalavr darajasini olish uchun**

**“Jamiyatni modernizasiya qilish va yangilash sharoitida yoshlarning huquqiy
madaniyatini yanada oshirish muammolari” mavzusida bajarilgan**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bajaruvchi: Bektimir Jumayev
Ilmiy rahbar: Otamurod Jo'rayev

BMI Ijtimoiy fanlar kafedrası yig'ilishining qarori bilan (2019 yil __ may _____ sonli bayonnoma) himoyaga tavsiya etilgan.

Ishni himoyaga tavsiya etaman:

Kafedra mudiri: **f.f.dok.M.Hoshimxonov**

Jizzax- 2019

MUNDARIJA:	
Kirish.....	3-7
I - BOB. DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA ADOLATLI FUQAROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY MADANIYATNING ILMIY – NAZARIY ASOSLARI.	
1.1 O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning asarlarida huquqiy madaniyatni ilmiy-nazariy asoslarini yoritilishi.....	8-13
1.2 Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasi, uning mohiyati va o'ziga xos tomonlari.....	14-24
1.3 Yoshlarda huquqiy, ahloqiy, siyosiy madaniyatning uzviy aloqadorligi....	25-33
1.4 Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirish.....	34-41
II BOB. JAMIYATNI MODERNIZASIYA QILISH VA YANGILASH SHAROITIDA YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI YANADA OSHIRISH YO'LLARI VA MUAMMOLARI.	
2.1 Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirish va shakllantirishning o'ziga xos tomonlari.....	42-48
2.2 Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirishda huquqiy tarbiya berishning shakllari, tizimi va samaradorligi.....	49-58
2.3 Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirishda oila va jamoatchilikning roli.....	59-66
2.4 Jamiyatni modernizasiya qilish va yangilash sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish muammolari.....	67-72
Xulosa.....	73-75
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	76-78

K i r i s h

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish, adolatla fuqarolik jamiyati qurish davrida milliy uyg'onish, milliy tiklanish, demokratik tamoyillarning qaror topishi fuqarolar ongida va madaniyatida tubdan o'zgarishlarni talab etadi. Yuksak huquqiy madaniyat jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri hisoblanadi.

Darhaqiqat, demokratik huquqiy davlatni vujudga keltirishning ilk va asosiy shartlaridan biri jamiyat a'zolarida zarur darajadagi huquqiy madaniyatni shakllantirishdir. Jamiyat iqtisodiy, siyosiy hayotining tub islohot etilishi huquqiy madaniyatni yuksaltirish uchun shart-sharoitlarni yaratib bermoqda, insonlarni haq-huquqlarini kafolotlamoqda. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov huquqiy madaniyat mavzusiga to'xtalar ekan shunday deydilar: «... har bir kishi o'z huquqlarini aniq va ravshan bilishi, ulardan foydalana olishi lozim. Buning uchun avvalo mamlakatimiz aholisining huquqiy madaniyatini oshirish lozim»¹.

Bitiruv malakaviy ishining dolzarbligi va ahamiyati. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1997 yil 29 avgustda tasdiqlangan «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturining qabul qilinishi ham bu masalani qay darajada dolzarb ekanligini ko'rsatadi. Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi holati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini va huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab etmoqda. Milliy dasturda huquqiy madaniyatning mohiyati, mazmuni, tarkibiy tuzilishi va namoyon bo'lishining falsafiy, ijtimoiy, iqtisodiy, ruhiy va yuridik muammolarini tadqiq qilish uni shakllantirish va yanada yuksaltirish usullarini aniqlashga ilmiy ishlanishlarni ustivor yo'nalishi deb qaralmog'i lozimligi ta'kidlangan. Jamiyatda yetilgan huquqiy madaniyatni shakllantirish muammolari shuni ko'rsatmoqdaki, yuridik soha olimlari bu muammolarni yechishga katta e'tibor berishlari lozim. Ayniqsa, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirishga katta e'tibor berish kerak. Chunki, bugungi kunda mamlakatimiz aholisining 40%ni 18 yoshgacha bo'lgan, 64%ni 30 yoshgacha bo'lgan yoshlar tashkil etadi.

¹ И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда.-Т:Ўзбекистон.1999 й.31-с

Yoshlarda ahloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyatini shakllantirish dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Chunki har qanday madaniyatning negizida tinchlikka yetaklovchi maqsad yotadi.

Yurtboshimiz ta'kidlaganlaridek, kelajak yoshlarniki, shunday ekan inson huquqlari, burchlari va majburiyati, iymon-e'tiqod tuyg'ularini, avvalambor, yosh avlodning o'zi mukammal o'zlashtirmog'i, so'ngra uni boshqalarning biliga singdirmog'i, go'zal hulqi, fe'l atvori, fazilatlarini bilan o'rnak bo'lmog'i kerak.

Bitiruv malakaviy ishi yoshlarning huquqiy madaniyati muammolari yangi sharoitdan kelib chiqqan holda tahlil etilgan, yoshlarning huquqiy tarbiyasini nazariy asoslaributun jamiyatimiz va uning ayrim ijtimoiy guruhlarining har hil tomonlarini tahlil qilishda ishlatilishi mumkin, nazariy-uslubiy xulosalari tarbiyaviy jarayonlar bilan shug'illanuvchi boshqaruv tizimida, oiladi, jamoat tashkilotlarida, o'quv yurtlarida o'zida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni, zamon talabiga mos yangicha ma'naviy – ma'rifiy, huquqiy, siyosiy va ahloqiy xislatlarni mujassamlashtirgan komil insonlarni tarbiyalash jarayonida qo'llanishi mumkin. Bu uning nazariy va amaliy ahamiyatini tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining obyektini biz o'rganayotgan ijtimoiy munosabat tashkil etadi, ya'ni yoshlarda huquqiy madaniyat, huquqiy madaniyat tushunchasi, jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etish qaysi sohalarni qamrab olganligi, yoshlarda ahloqiy, siyosiy va huquqiy madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyati tushunchasi, yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy, ahloqiy, siyosiy madaniyatning uzviy aloqadorligi, huquqiy tarbiya berishning samardorligi tashkil etadi. Uning predmetini: biz o'rganayotgan ijtimoiy munosabatga ta'sir etish mexanizmi, o'rganish uslublari, tizimi, shakllari va maqsadi tashkil etadi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari: Respublikamizning o'ziga xos va o'ziga mos istiqloq yo'li jamiyat hayotining barcha sohalarini o'zaro mutanosiblikda, uyg'un va tadrijiy asoslarda uzluksiz ripvojlantirishni taqazo etadi. Bu tizimda fuqarolarning, jamiyatning huquqiy madaniyatini oshirish muammosi ulkan ijtimoiy, siyosiy ahamiyatga egadir. Ayniqsa, yoshlarda huquqiy

madaniyatni yuksaltirish bu borada o'zining dolzarbligi bilan ajralib turadi. Oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun quyidagi muammolarni hal etish zarur deb hisoblaymiz:

- jamiyatimizda ma'naviy yangilanish, demokratik o'zgarishlar sharoitida fuqarolarda, ayniqsa yoshlarda yuqori huquqiy madaniyatni tarbiyalash zarurligini ochib berish;

- O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida huquqiy madaniyatning ilmiy asoslanganligini o'rganish;

- yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasining mohiyatini va o'ziga xos tomonlarini aniqlash;

- umuminsoniyatning huquqiy madaniyatga yondashishining o'ziga xosligini aniqlash va unda tinchlik madaniyatining tutgan o'rnini qo'rsatish;

- yonlarda huquqiy madaniyatning siyosiy va ahloqiy madaniyat bilan bog'liqligini nazariy jihatdan asoslab berish;

- huquqiy tarbiyaga kompleks yondoshishning mohiyatini ko'rib chiqish, uning o'ziga xos tomonlarini aniqlash; huquqiy tartibga solishning yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirish sohasiga maqbul keluvchi va O'zbekistonning hozirgi davri sharoitlariga javob beruvchi, bu munosabatlarni rivojlantirishga qaratilgan aniq amaliy tavsiyalarni ishlab chiqish;

- yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirishda huquqiy tarbiya berishning shakllari va tizimini tadqiq etish;

- yoshlarga huquqiy tarbiya berishda oila va jamoatchilikning rolini aniqlash;

- yoshlarda huquqiy madaniyatni yuksaltirishning amaliy va uslubiy tavsiyalarini ishlab chiqish.

Bitiruv malakviy ishining nazariy-uslubiy asosini: jamiyat rivojlanishining umumiy qonuniyatlari, vorisiylik, tarixiylik, mantiqiylik hamda tizimiylik, demokratik prinsiplari tashkil etadi. Oldiga quyilgan vazifalarni taxlil qilish uchun masalaga kompleks ravishda yondashilganligi sababli, ilmiy bilishning quyidagi

maxsus uslublaridan foydalaniladi: muammoli-tahlil, tarixiylik, qiyosiy-huquqiy, tizimiylik, mantiqiylik va boshqalar.

Bitiruv malakaviy ishining ilmiy o'rganilganlik darajasi:

Huquqiy madaniyat, huquqiy mafkura va huquqiy savodxonlik muammolarini o'rganish masalasi dolzarb ilmiy muammolardan hisoblanib kelingan. Bu muammo ko'p olimlarni e'tiborini o'ziga jalb etgan. Ilk tadqiqotlar o'tgan asrning 60-70 yillarida paydo bo'la boshladi.

Hozirgi kunda davlat va huquq nazariyasida mustaqil ilmiy yo'nalishi sifatida huquqiy madaniyat nazariyasini yuksaltirish faol ishlar olib borilmoqda. Bu nazariyani rivojlantirishda fundamental umunazariy ishlar asosan huquqni, huquqiy ongni hayotimizning falsafiy, ijtimoiy – siyosiy muammolariga bag'ishlangan ishlar katta ta'sir ko'rsatmoqda. Ko'pchilik ishlarda huquqiy madaniyat mustaqil tahlil qilinishi mumkin bo'lgan predmet sifatida emas, balki huquqiy nazariya va amaliyotning muammolari bilan birgalikda o'rganilgan. Shuningdek, mutaxassislikka oid huquqiy madaniyat muammolari bilan shug'illanish ham oxirgi yillarda ancha rivojlandi, asosan ichki ishlar xodimlarining huquqiy madaniyati keng o'rganila boshlandi. Bularga U.Tojixonov, A.F.Granin, V.V.Lazerev, V.P.Salnikov, N.A.Sokolov, V.V.Egletis va boshqalarni ishlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Mustaqillik e'lon qilingandan keyin Respublikamizda ham milliy madaniyat, qonunga itoatkorlik muommolari yuridik fanimiz oldiga dolzarb vazifalarni qo'ydi. Bu borada Birinchi Prezedentimiz I.A.Karimov asarlarida ilmiy – nazariy jihatdan asoslab berilgan. Bu muammolar ustida ish yuritgan huquqshunos olimlarimizning ishlari diqqatga sazovordir. Ularga Sh.Urazayev, U.Tojixanov, A.Saidov, E.Halilov, Z.Islomov, X.Odilqoriye, O.Karimova, R.Maxmudov, F.Rahimovlarni sanab o'tish mumkin.

Bitiruv malakaviy ishining tuzulishi. Kirish, Asosiy qism, Xulosa va Foydanilgan adabiyotlardan tashkil topgan. Kirish – mavzuning dolzarbligi va ahamiyati, obe'kti, predmeti, maqsad va vazifasi, nazariy – uslubiy asosi. Ilmiy o'rganilganlik darajasidan tashkil topgan. Asosiy qism - 2 bob va 8 ta rejadan

tashkil topgan. 1 – bobda huquqiy madaniyat ilmiy – nazariy asoslari yoritilgan, 4 ta rejada bu aks etgan.

1 – O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida huquqiy madaniyatning ilmiy – nazariy asoslari yoritilgan.

2 – Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasi uning mohiyati va o‘ziga xos tomonlari.

3 – Yoshlarda huquqiy, ahloqiy, siyosiy madaniyatning uzviy aloqalari.

4 – Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirish aks yetgan.

2 – bobda Yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish yo‘llari va muammolari aks etgan va bu bob 4 rejadan iborat.

1 – Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirish va shakllantirishning o‘ziga xos tomonlari

2 – Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirishda huquqiy tarbiya berishning shakllari tizimi va samaradorligi .

3 – Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirishda oila va jamoatchilik roli.

4 – Yoshlarda huquqiy madaniyatning yanada oshirish yo‘llari va muommolari aks etgan.

Xulosa va foydaniilgan adabiyotlar ham aks etgan.

**I - BOB: DEMOKRATIK HUQUQIY DAVLAT VA ADOLATLI
FUQOROLIK JAMIYATINI SHAKLLANTIRISHDA HUQUQIY
MADANIYATNING ILMIIY NAZARIY ASOSLARI**

**1.1.O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov Asarlarida
huquqiy madaniyatning ilmiy – nazariy asoslarining yoritilishi**

Istiqlol yillarida mamlakatimiz hayotining barcha jabhalarida yuz berayotgan tub islohotlar Yurtboshimizning nomlari bilan chambarchas bog'liqdir. Birinchi Prezidentimiz rahbarlik davrining birinchi kunlaridanoq o'z nutqlari va asarlarida demokratik, huquqiy davlat qurishni asosiy maqsad qilib qo'ydilar. Yuksak ahloq, barkamol aql va sog'lom jamiyatda hamda milliy mafkura mavjud joydagina qonunga hurmat tantana qiladi. Shuning uchun ham I.A.Karimov keng ko'lamli demokratik islohotlar davrida milliy istiqlol mafkurasini yaratishni asosiy masalalaridan biri qilib qo'ydi. Yurtboshimiz demokratik huquqiy davlat qurish yo'llarini ilmiy asoslab berar ekan, asosiy masalalarga chuqur e'tibor berish lozimligini qayta-qayta ta'kidlaydi. O'zbekiston siyosiy sohada demokratik, adolatli fuqorolik jamiyat qurishda quyidagilarni amalga oshirish lozim deb bilamiz.

«Barcha fuqorolarning qonun oldidagi huquqiy tengligini va qonunning ustuvorligini, jamiyat manfaatlari himoya qilinishi va aholining xavfsizligini kafolatlaydigan huquqiy davlatni barpo etish. Qonuniylik va huquq-tartibot tantana qilmasa, shaxsning huquqlari va erkinliklari, qattiq intizom, ichki uyushqoqlik va ma'suliyat ustuvor bo'lmasa, qonunlar va an'analar hurmat qilinmasa huquqiy davlatni tasavvur etib bo'lmaydi¹».

Umuman olganda, demokratiya darajasi xalqimiz qonun va qarorlar qabul qilinishidan xabardorligi, davlatni bevosita yoki bilvosita boshqarishdagi ishtiroki bilan baholanadi. Demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisi – bu jamiyatga qonun ustuvorligi prinsipidir. Bu holat Konstitusiyamizning 15 –

¹ И.А.Каримов.Ўзбекистоннинг истиқлол ва таракқиёт йўли./Ўзбекистон буюк келажак сари/.-Т.Ўзбекистон.1998 й. 16-с

moddasida mustahkamlangan. I. A. Karimov Konstitusiyamizni ta'riflab, shunday degan edi: «Har qanday davlatning obro' – etibori uning konstitutsiyasi hisoblanadi. Zotan Konstitusiya davlatni davlat, millatni-millat sifatida dunyoga tanitadigan qomusnomadir. Shu ma'noda Asosiy qonunimiz – xalqimizning irodasini, ruhiyatini, ijtimoiy ongini va madaniyatini aks ettiradi. Chunki uni ishlab chiqish va muhokama etishda butun xalq ishtirok etdi. Bir so'z bilan aytganda, konstitusiyamiz tom ma'noda, xalqimiz tafakkuri va ijodining mahsulidir»¹.

O'zbekiston davlat qurilishi va iqtisodiyotini isloh qilish dasturining o'zagi bo'lishi beshta asosiy tamoyilning biri ham « Qonun, qonunlarga rioya etish ustuvor bo'lishi lozim. Buning ma'nosi shuki, demokratik yo'l bilan qabul qilingan yangi konstitusiya va qonunlarni istisnosiz hamma hurmat qilishi lozim».

O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining jamiyatdagi o'рни va ahamiyatini, ma'no-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish, Konstitusiyani bilish, uning mazmuni-mohiyatini targ'ib va tashviq qilish maqsadida « O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini tashkil etish to'g'risida» Prezidentimizning 2001 yil 4-yanvardagi farmoyishi e'lon qilindi. Mazkur farmoyishga muvofiq barcha ta'lim muassasalarida «O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish» kurslarini o'qitishni yo'lga qo'yish lozimligi ko'rsatilgan.

Mustaqillik tufayli huquqiy ta'lim-tarbiya, huquqiy madaniyat va huquqiy ongga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish davlat faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biriga aylandi.

Aholining huquqiy madaniyatni yuksaltirishga qaratilgan masalalarni davlat siyosati darajasiga ko'tarilashida birinchi Prezidentimizning «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida» farmoni muhim ahamiyatga ega bo'lib, u Respublikamizda huquqiy madaniyatga oid milliy dasturni qabul qilinishiga zamin yaratdi.

¹ И.А.Каримов. Ўзбекистон келажаги буюк давлат.-Т.Ўзб.1992 й. 36-с

Nazarimizda, bunday farmonni imzolanishiga juda katta ehtiyoj mavjud edi. Biz keng ko'lamli tadbirlar deb hisoblagan ishlarimiz yetarlicha jamlanmagan, tarqoq holda ekanligini tan olishimiz zarur. Har bir huquqiy tarmoq, idora o'z vazifasiga oid taraflarinigina aholi o'rtasiga olib chiqishdan o'zga chorasi yo'q edi. Bahona ham tabiiy umumdavlat siyosati qamrovida dastur yo'qligiga ishora qilinardi. Shuning uchun ham mazkur hujjatlarni o'z davrida yaratilgan, deb aytishimiz mumkin.

Qonunga bo'lgan hurmatni tarbiyalash, fuqorolarning huquqiy madaniyatini ko'tarishning dolzarbligiga alohida etibor bergan holda Yurtboshimiz shunday degandi: «Huquqiy madaniyatning yuqori darajada bo'lishi huquqiy davlatning o'ziga xos xususiyatidir. Bozor iqtisodiyotini shakllantirish sharoitida huquqiy madaniyatni oshirish muhim ish hisoblanadi. Shu bilan birga huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ushbu qonunlarning barcha darajada ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ huquqiy hujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero, huquqiy normalar odamlar ongiga singan va ular orqali amal qilgan taqtirodagina yashaydi va ruyobga chiqadi»¹.

O'zbekistonda islohotlarning huquqiy negizini yaratishning bir qancha muhim yo'nalishlari bo'yicha amalga oshirish zarur deb bilamiz bunda, asosiy vazifa hozirgi sharoitlarga mos keladigan qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilishdangina emas, balki ularga og'ishmay amal qilinishini ta'minlashdan ham iborat bo'lishi lozim. Taniqli huquqshunos olim Sh.I.Urazayevning ta'kidlashicha, qonunning o'zida unga majburiy rioya qilish va uni bajarish g'oyasi bo'lishi darkor².

Qabul qilingan normativ huquqiy hujjatlarni muvaffaqiyat bilan hayotga tadbiq etish ko'p jihatdan yangicha huquqiy ongni, huquqiy madaniyatni shakllantirish bilan bog'liq. Huquqiy madaniyat darajasi qabul qilingan qonunlar soni bilan emas, balki ularning bajarilishi bilan belgilanishi yaxshi ma'lum. Bozor

¹ И.А.Каримов.Буюк келажак сари.Ўзб. 1998 й. 127-с

² Ш.З.Уразаев. Власть и закон.Т.Фан.1991й. 47-с.

iqtisodiyoti sari borayotgan yo'limiz biz uchun huquqiy tarbiya maktabi bo'lmog'i darkor. Binobarin bundan kelib chiqadigan muhim saboq shuki qonunga amal qilgan holda yashash va mehnat qilishni o'rganishimiz, o'z huquq va erkinliklarimizni qonun orqali himoyalashni, o'z majburiyatlarimizni og'ishmay bajarishni o'rganib olishimiz kerak. Qonun ustuvorligi tantana qilishiga, unga og'ishmay rioya etish esa har bir kishining muqaddas burchi bo'lib qolishiga erishishimiz kerak»¹. 1997 yil 20 mayda I.A.Karimovning huquqshunos olimlar, huquqni himoya qiluvchi organlar rahbarlari va ommaviy axborot vositalari vakillari bilan o'tkazgan uchrashuvi, huquqtartibot organlari xodimlarining huquqiy madaniyatiga katta e'tibor berish kerakligini ko'rsatadi. Ichki ishlar idoralari xodimlarining huquqiy madaniyati umuman huquqiy madaniyatiga taaluqli asosiy mezonlar bilan ta'riflanadi. Ammo shuning bilan birga ularning huquqiy madaniyatida bir qancha o'ziga xos, odatdagi fuqorolarining huquqiy madaniyatidan ajratib turadigan, lekin afsuski, ba'zan yetarlicha e'tibor berilmaydi².

Yurtboshimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1995 yil 23-fevralida bo'lgan 1-sessiyasidagi so'zlagan «O'zbekistonning siyosiy, ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining tamoyillari» ma'ruzasida huquqiy madaniyatga to'xtalib shunday deydi: «Huquqiy madaniyat darajasi faqatgina qonunlarni bilish, huquqiy ma'lumotlardan xabardor bo'lishdangina iborat emas. U qonunlarga amal qilish va ularga bo'ysunish madaniyati demakdir. U odil sudni hurmat qilish uchun sudga murojaat etish ehtiyoji demakdir. Huquqiy madaniyat degani – turli mojarolarning hal qilishda qonunga hilof kuchlardan foydalanishni rad etish demakdir»³. «Sir emaski, oddiy fuqoro, avvalo, davlat nomidan ish ko'ruvchi mansabdorlarning o'zlari qonunlarni qanday bajarayotgan-liklariga e'tibor beradi. Agar shunday bo'lmasa, agar o'sha organlar yoki mansabdor shaxslarning o'zlari qonunlarni oyoq osti qilsa mazkur qonunlarning o'zi obro'sizlanadi, yanayam to'g'rirog'i,jamiyatning ma'naviy asoslariga putur yetadi «. Prezident 1-chaqiriq

¹ I.A.Каримов. Буюк келажак сари.-Т. Ўзб. 1998 й. 100-с

² У.Гаджиханов. Ўзбекистонда мустақил давлатчиликнинг ҳуқуқий – маънавий муаммолари.-Т.ЎзР.ИИБ Акад.1996 й. 137-с

³ I.A.Каримов. Ватан саждагоҳ каби муқаддасдир.-Т.Ўз-н.1995 й. 189-с

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 1996 yil 29-avgustda bo'lib o'tgan VI sessiyasida so'zlagan nutqida fuqorolarning ongi masalasiga yana bir bor to'xtalib: «Biz odamlarning eskicha psixologiyasini o'zlashtirib, ularda yangi huquqiy ongni shakllantirishimiz lozim. Shunday bulsinki, har bir kishi inson erkinliklari-ayni vaqtda muayyan burch, majburiyat va ma'suliyat ekanligini chuqur his qilib tursin. Barcha o'quv yurtlarining taxsil dasturlariga «Inson huquqlari» maxsus kursini kiritish, shuningdek, ta'lim va tarbiyaning butun jarayonini insonparvarlik g'oyasiga bo'ysundirish zarur», deb ta'kidlaydi. Aholining keng qatlamlariga muljallangan «Huquq-pravo-lai», «Hayot va qonun», «qonun himoyasida», «Ijtimoiy fikr», «Demokratlashtirilgan va inson huquqlari», «Inson va qonun», «Qalqon», «Qonun nomi bilan», «Xujalik va huquq» kabi yangi yuridik gazeta va jurnallar paydo bo'ldi. Mehnat jamoalarida, mahallalarda, korxonalar va tashkilotlarda huquqiy bilimlarni targ'ib qilishning yangi usullari tiklanmoqda. 2000 yil yanvarda bo'lib o'tgan ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida so'zlagan nutqlarida ma'naviy va shu huquq sohasida oldimizda turgan vazifalarni birma-bir sanab: «Ahalimiz, ayniqsa yoshlarning huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan chora-tadbirlar dasturini keng ko'lamda amalga oshirishga alohida e'tibor berish zarur deb o'ylayman. Toki har bir fuqoro o'z haq-huquqlarini bilsin va uni himoya qilsin»-deb takidlaydi.

Har bir tarbiya, jumladan huquqiy tarbiya asosini milliy mafkura tashkil etadi. Milliy mafkura negizida huquqiy mafkura va huquqiy va madaniyat shakllanadi. Milliy istiqlol g'oyalarini yoshlarimiz ongiga sindirishga qaratilgan o'quv, ilmiy-uslubiy va tarbiyaviy ishlarning samaradorligini ta'minlash va yanada takomillashtirish maqsadida 2001 yil 18-yanvarda «Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar va tamoyillar» fani bo'yicha ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish to'g'risida birinchi Prezidentimiz Farmoyishi e'lon qilindi. Bu milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishning nazariy, amaliy va tarbiyaviy ahamiyatini yana bir bor ko'rsatdi. Zero, ma'naviy yetuk insonlarga barkamol jamiyati qurishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti akademik I.A.Karimovning «O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura», «Bizdan ozod va obod vatan qolsin», «Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir», «Bunyodkorlik yo'lidan», «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari», «Yangicha fikrlash va ishlash davr talabi», «Barkamol avlod orzusi», «O'zbekiston XXI asrga intilmoqda», «Buyuk kelajak sari» nomli asarlari va risolalarida, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001, 2003, 2004 yillarda bo'lib o'tgan 2-chaqiriq VI, VII, IX, XI, XIV sessiyalarida so'zlagan nutqlarida O'zbekiston mustaqil taraqqiyot yo'lini o'ziga xos shart-sharoitlari, huquqiy asoslari chuqur ilmiy – asoslari chuqur ilmiy – falsafiy tahlil qilib berilgan.

Fikrimiz hulosasi sifatida shuni aytishimiz mumkinki, biz birinchi Prezidentimizning asarlarini chuqur mutoala qilish natijasida huquq sohasida quyidagi yo'nalishlarni ilmiy asoslab berilganligini ko'rdik:

birinchidan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini tan olish va qonun oldida tenglik;

ikkinchidan, jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish;

uchinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, ularni himoya qilish;

to'rtinchidan, aholi keng qatlami o'rtasida huquqiy targ'ibot va axborotni yo'lga qo'yish.

Ana shu ko'rsatmalardan kelib chiqib, demokratik jarayonlarni chuqurlashtirish uchun yaratilayotgan yangidan – yangi imkoniyatlari, shart – sharoitlarlan imkoni boricha foydalanib, jamiyatda yuksak huquqiy madaniyatni shakllantirishda har bir fuqaro o'z xissasini qo'shishi lozim.

1.2. Yoshlarning huquqiy madaniyati tushunchasi, uning mohiyati va o'ziga xos tomonlari

«Huquq madaniyati»-keng ko'lamli, manodor tushunchadir. Uning tahlili mahsus tadqiqot mavzusini taqazo qilishi mumkin va tabiiydir.¹ Yoshlar huquqiy madaniyatini o'rganish, uning o'ziga xos tomonlarini aniqlash jamiyatdagi ijtimoiy tabaqalarni alohida-alohida o'rganish zarurligi nuqtai nazaridan qaraladigan bo'lsa, dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasi huquqiy kategoriya sifatida murakkabligi bilan ajralib turadi. Chunki yoshlar huquqiy madaniyatiga berilgan har qanday tarif ham muayyan tarixiy jixatdan uning mazmunini to'la-to'kis ochib bermaydi.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini muayyan-tarixiy tushunish, unda bu tushuncha tizimi va kelib chiqishi jixatidan predmetning subyektiv mazmunini takrorlaydi, yoshlarning huquqiy madaniyatini ijtimoiy ong shakllaridan biri deb tushunishni istisno etmasligi u yoqda tursin, hatto taqazo etadi ham.²

Yoshlar huquqiy madaniyati tushunchasiga tarif berishda, bu sohada ilmiy tadqiqotlar olib borgan huquqshunoslar, olimlar turlicha fikrlar berib o'tishgan. Bu muammoni hal etishda birinchi navbatda huquq va madaniyat tushunchalari bilan o'zaro tadqiq qilish katta o'rin tutadi deydi R. Maxmudov o'zining «Huquq va madaniyat» nomli risolasida.³ «Madaniyat atamasi» o'z xajmi va mazmuni jixatidan xilma-xil bo'lgan tushunchalarni ifodalash uchun qo'llaniladi.

Masalan, bu mano ostida inson tomonidan vujudga keltirilgan moddiy va manaviy qadriyatlar majmuasi jamiyatning g'oyaviy xolati, uning sifati, ijodiy faoliyat va uning mahsuli, inson faoliyati va uning majmuiy turlari, jamiyatning manaviy xayoti va xakozolar yotadi.

Falsafiy adabiyotlarda «Madaniyat» tushunchasiga 500 dan ortiq tarif berilgan bo'lib, bu ko'rsatkich doim o'sib bormoqda. «Madaniyat» kategoriyasiga berilgan

¹ Исмоилов З. Хокимият ва ҳуқуқ маданияти. Хаёт ва қонун. 1998-й №7-78-б

² Тоджихонов У, Саидов Н Хуқуқий маданият назарияси Т2.-Т Ўз. Р ИИВ Акад. 1998

³ Махмудов Р. Хуқуқ ва маданият. Т. Ўзбекистон, 1994 йил 4-б

eng ko'p yondashuv, bu insoniyatning rivojlanish bosqichida qo'lga kiritilgan moddiy va manaviy qadriyatlar yig'indisi deb qarashdir.¹

Huquqiy adabiyotlarda madaniyatning moddiy qadriyat sifatida qaralishini biz A. F Gramina, V. M. Chxekvadze, L. S. Yavich va boshqa mualliflarning ishlarida uchratishimiz mumkin. Ikkinchi bir yondashuvda esa madaniyatga ijodiy faoliyatning sinonim sifatida qaralishidir. Bu yondashuvni huquqiy sohada ishlatadigan bo'lsak, bunda huquqiy ijodkorlik faoliyati tushuniladi. Huquqiy madaniyatni o'rganishda bunday yondashuvni Ye.V. Agranovskaya, Ye.A. Zarchenko, S. N. Kojevnikov kabi mualliflarning ishlarida uchratish mumkin. Keyingi yondashuv, jamiyat ijtimoiy tizimidagi subyektiv unsurlarni madaniyat tushunchasidan ajratib olishdir.

Yuridik adabiyotlarda huquqiy madaniyatni aniqlashda subyektiv-intelektual unsurlar huquqiy sovdaxonlik, huquqiy tushunish va boshqalarga tayanib ish olib borgan mualliflar ham mavjud. Bularga S. S. Alekseyev, Ye. A. Lukasheva, R. K Gusinov va boshqalarni ishini misol qilib olishimiz mumkin.²

Biz ko'rib chiqmoqchi bo'lgan yana bir yondashuv, madaniyat tushunchasini subyektning manaviy rivojlanish darajasi bilan bog'lab o'rganishdir. Huquqiy madaniyatni o'rganishda, bu fikr ham o'ziga xos o'rin tutadi, chunki subyektning huquqiy madaniyati darajasi huquqiy madaniyatni tasniflashda uni o'rganishda asosiy yo'nalishi bo'lib xizmat qiladi. Jaxon fanlari miqyosida madaniyatga oid yondashuvlarni 3 guruhga bo'lish mumkin: yani antorologik, sosiologik va falsafiy yondashuv.³

Antorologik yondashuvda madaniyat tabiat erishgan narsalardan farqli ravishda inson tomonidan yaratilgan nematlarni yig'indisi sifatida tushuniladi. Sosiologik yondashuv madaniyatni manaviy qadriyatlar sifatida talqin etadi.

¹ Малая Советская энциклопедия. -Т5-М, 1959-С.238

² Алексеев С. С Механизм и правового регулирования в социалистическом государстве. – М.-1996 г с 176

³Ковалзон М.Я Место понятие, «Культура» в системе категория исторического материализма 1976-С122.

Bu yerda madaniyat ijtimoiy xayotning tarkibiy qismi sifatida qatnashadi. Falsafiy yondashuvda esa madaniy xodisalar ijtimoiy rivojlanishga bog'liq bo'lmagan sof tahliliy holda ajratib ko'rsatiladi.¹

Yuqoridagi fikrlardan shunday savol kelib chiqadiki: madomiki, madaniyat tushunchasi umummilliy manoga taaluqli ekan yani bir qator fanlarda qo'llanilar ekan, uning tarifini berishning imkoni va umuman zarurati o'zi bormi?-degan savol tug'iladi. Shuning uchun ham madaniyat va huquqning o'zaro aloqadorligini, uning birligi muammosini aniq bir madaniyatga berilgan tarif bilan emas, balki u yoki bu «madaniyat» tushunchasi doirasida aniqlab, uning o'ziga xos muayyan tarifini ishlab chiqishga harakat qilamiz. Sobiq ittifoq madaniyatshunosligida eng ko'p tarqalgan madaniyat haqidagi talimotlardan biri bu mavzuning qadr – qimmatini tug'risida bo'lib, uni moddiy va ma'naviy qadriyatlar majmui yoki qadriyatlar tizimi asosida marifatga asoslangandir². Uning aloxida bilim saviyasidan tadqiqodlar yotadiki, madaniyat tushunchasi bashariyat faoliyatining ijtimoiy – tarixiy amaliyoti davomidagi jarayonlarni o'zida aks ettiruvchi yakuniy majmua sifatida namoyon bo'ladi. Uning mazmunini aniqlash esa, moddiy ishlab chiqarishga band bo'lgan kishilar qaytib faoliyatining xilma xil unsurlarini ko'rsatib o'tish, ularning axloqiy, siyosiy, huquqiy, maishiy va boshqa tomonlarini qayd etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Madaniyat mavzusini qadriyat sifatida tushunish, unga aksiologik nuqtai nazardan yondashishga undaydi. (Aksiologiya – yunonga «aksiya» – arzish, qadriyat, qadriyatlar haqidagi ta'limot) unga muvofiq u yoki bu hodisada namoyon bo'ladigan inson faoliyati «madaniy» yoki «madaniyatsiz» sifatida baholanadi. Ma'lumki, huquq va madaniyat o'zaro bog'liq kategoriyadir. Madaniyat shaxsning erkin va har tomonlama rivojlanishini ta'minlovchi xamda taminotning ijtimoiy rivajlanish darajasining o'lchovi sifatida maydonga chiqadi. Shunday qilib, madaniyat, sosiologik ma'noga, inson o'zini rivojlantiradigan dunyoni bildiradi. Demak, madaniyat falsafasini inson falsafasi sifatida ta'riflaydigan mualliflarning

¹ Таджиханов У., Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 1-том. 1998 й. 28-бет

² Кушкмна Е.И. Познание, язкк культура. М.Г.У. 1984. 40-бет

xam fikricha qo'shilmoq lozim.² Yaqingacha madaniyat umumiy nazariyasining to'liqligicha tadqiq etilmaganligi bois jamiyatda shaxs huquqiy madaniyatini tushunchasini aniqlashda asosan quyidagi unsurlar ajratib ko'rsatilar edi: shaxsning o'z huquqlarini bilishi, qonun va boshqa me'yoriy xujjatlarning mazmuni va nimaga yo'naltirilganini aniqlashi unga nisbatan xurmatni shakllantirishi, qonuniylik va adolatni xis qilish.² Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, yoshlarning huquqiy madaniyatiga uning tarkibiy unsurlari asosida ta'rif beradigan bo'lsak, uni quyidagicha ta'riflash mumkin bo'ladi: yoshlarning huquqiy madaniyati ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan xurmati, huquqiy normalarni ijro etish xayotga tadbiq eta olish ko'nikmasi, huquq buzarlilklarga nisbatan murosasizlik, qonunlari ijoatkorlik, huquqiy faollik xamda tashabbuskorlik darajasidir. Yoshlarni yuksak huquqiy madaniyati jamiyatimiz taraqqiyotini ta'minlaydi. Darxaqiqat, «jamiyatga huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi»da ham ko'rsatib o'tilganidek, yuksak huquqiy madaniyat – demokratik taminot poydevori xamda huquqiy tizim yetukligini ifodasidir. U jamiyatdagi turli xil xayotiy jarayonlarga faol ta'sir ko'rsatuvchi, fuqorolarning, barcha ijtimoiy guruxlarning jipslashuviga ko'maklashuvchi, jamiyatning yaxlitligi xamda betartibligini ta'minlovchi va mustaxkamlovchi omildir. Qonuniy xurmat qilish huquqiy jamiyatining siyosiy va huquqiy tizimdagi samarali faoliyat ko'rsatishining asosiy talablaridan biri xisoblanadi.¹ Yoshlarning huquqiy madaniyati mazmunining asosiy unsurlaridan biri, bu yurudik va majburiyatlarga subyektiv – ruxiy munosabat, huquqiy faoliyati davomida ularning amalga oshirilishidir. Yoshlarning huquq va majburiyatga bo'lgan munosabat huquqiy xayotining barcha xodisalarning baxolashda xal kiluvchi axamiyatga ega. Yuridik huquq va majburiyatlar orqali ularning madaniyat – qadriyat sifatida huquqqa bo'lgan undagi talablarga nisbatan ruxiy munosabatini ochib beradi. Yuridik huquq va majburiyatlarga bo'lgan subyektiv – ruxiy munosabat, ularni huquqiy faoliyati orqali amalga oshirilishi talablari yoshlarning jamiyatdagi huquqiy xodisalarga nisbatan qadriyatlarni baxolashini ochib beribgina qolmay balki madaniyatini faoliyat yurish turish bilan bog'liq tomonlarini aniqlaydi. Huquq madaniyatga

huquq erkinlik va majburiyatlar orqali yondashib huquqiy madaniyatning yoshlarning huquqiy soxadagi faoliyatining muxim usullaridan biri ekanligini ko'rsatadi. Yoshlarning huquqiy madaniyati to'g'risida gap borganda, birinchidan uning o'z huquq, erkinlik va majburiyatlarini bilishi tushunishi va to'g'ri anglashi baxolashi uchun ikkinchidan esa ulardan amaliy faoliyatida foydalanishi xaqida so'z yuritish joizdir. Yoshlarning huquqiy madaniyati asosi va o'ziga xos tomonlari quydagi ko'rinishlarda o'z aksini topdi:

Birinchidan, yoshlarning huquqiy savodxonligi, ya'ni huquqiy bilimlarni o'zlashtirib olish, yuridik ma'lumotga esa bo'lishdir. U.Tadjixonov to'g'ri ta'kidlaganidek, yuridik savodxonlik huquqiy bilimlar alifbosini, eng oddiy normalarni bilishni, huquqiy ko'rsatmalarning murakkab labirintida adashmaslikni, barcha zarur holatlarda mutaxassisga yordam so'rab murojaat etish extiyojini o'zida shakllantirishni taqozo qiladi. Chunki bu savobxonlik uning har qanday holatda ham o'z hatti-harakatlarini belgilab olishda huquqiy talablarga muvofiq keladigan etalonlarga suyanishga imkon beradi¹. Huquqiy savodxonlik, bu faqat ma'lum bir huquqiy normalar, huquq tarmoqlari haqida ma'lumotga ega bo'lishgina emas, balki turli hil huquqiy ko'rinishlar, davlat va jamiyat hayotini huquqiy asoslarini rivojlantirish to'g'risida habardorlik ham demakdir. Shunday qilib huquqiy savodxonlik, huquqiy bilimlarga ega bo'lish huquqiy madaniyatning bazasini tashkil etadi² va jamiyatda insonlarning hulq-atvoriga o'ziga xos ta'sir ko'rsatadi. Huquqiy savodxonlik, yuqorida ta'kidlab o'tganidek, faqat huquqni bilishgina emas, balki to'g'ri tushunish hamdir, qonun amalga oshirish vositasi bo'lib hizmat qiladigan siyosiy, iqtisodiy, madaniy vazifalarni bajarishdir. Ammo, yoshlarimizning qonunlarni o'zlashtirib olish darajasi pastligi bilan ajralib turadi.

O. Balzakning «Fojiamiz shundaki, hych narsani qonunlarni bilganchalik yomon bilmaymiz»-degan fikrlari bizning yoshlarimizga ham taalluqlidir.

Ikkinchidan, yoshlarda qonunlarga bo'lgan chuqur hurmatni shakllantirishdir. Qonunga hurmat bilan yondoshish, bu hurmatni amalda namoyon etishning o'zi

¹ U.Tadjixonov. Agar qonun ishlasa. Huquqiy demokratik islohotlar. Ўз. 1997 й. 57 б.

² Е.Н. Зорченко. Воспитание правовой культуры молодежи. Белорусь.1986. 26-б

huquqiy madaniyatining oliy darajada namoyon bo'lishidir. Huquqqa hurmat – o'axs huquqiy madaniyatining muhim hususiyatlaridan biridir. Bu esa huquqning ijtimoiy qadr-qimmatini, uning ko'rsatmalarini bajarishning zarur va foydaliligini, huquq bilan qoniqqanlik tuyg'usini undagi talablarning adolatliligini, qonuniy va burchlarni amalga oshirishda faol va ijodiy munosabatni tan olishdan iborat. Huquqqa hurmat munosabati o'zida ruhiy va mafkuraviy bosqichlarni mujassamlashtiradi, deb ko'rsatadi taniqli huquqshunos olim U. Tojixonov¹. Ruhshunoslik darajasida huquqqa hurmat, huquq bilan qoniqish tuyg'usida, undagi talablarni adolatliligida namoyon bo'ladi. Qonunlarga bo'lgan hurmat-barkamol yosh avlod huquqiy madaniyatining mavjud ko'rinishidir. Huquqqa yuksak hurmat bilan qarovchi yoshlar har qanday huquqiy qoida va talablarni buzilishiga qarshi turadi, har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz bo'ladi. Shuningdek, yoshlarda huquqiy javobgarlik va intizom tuyg'usi yuqori darajada shakllangan bo'lishi kerak. Har bir qilingan ish uchun javob berish kerakligini tushunib yetish kerak, javobgarlik borgan sari mustah-kamlanib eng foydali va zaruriy odamga aylanmo-i lozim. Ayniqsa, in-sonning oila oldidagi ijtimoiy – huquqiy javobgarligi va burchi tuyg'u-si bebahodir. Chunki bu tuyg'ularni qaror topishi avvalo ular tarbiya-lanayotgan oilada shakllanadi va kelajakda yoshlarga jamiyat, davlat olididagi mas'uliyat, javobgarlik xis-tuyg'ularining poydevoriga aylanadi.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning quyidagi fikrlariga to'xtalib o'tsak: «Huquqiy madaniyat saviyasi qabul qilingan qonunlar soni emas, balki, ushbu qonunlarning barcha darajalarda ijro etilishi bilan belgilanadi. Ushbu muhim ishda odamlarda qonunlarga va normativ xujjatlarga nisbatan chuqur hurmat hissini tarbiyalash alohida ahamiyatga egadir. Zero huquqiy normalar odamlar ongigia singgan va ular orqali amal qilgan taqdirdagina yashaydi va ruyobga chiqadi»². Huquqqa yuksak hurmat bilan qarovchi yoshlarhar qanday huquqiy qoida va talablarning buzilishiga qarshi turadi, har qanday huquqbuzarlikka nisbatan murosasiz bo'ladi. Shu sababdan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarori

¹ Тожионов У. Ўзбекистонда мустақил давлатчиликнинг ҳуқуқий-маънавий муаммолари. Т. Ўзбекистон Республикаси.ИИВ академияси, 1996 й. 35-36-с.

² И.А.Каримов. «Буюк келажак сари».-Т.Ўз.н. 1998. 127-с.

bilan tasdiqlangan «Jamiyat huquqiy madaniyatini yuksaltirish milliy dasturida: mamlakatimizda qonun xujjatlarini inson huquqlarini inson huquqlari sohasidagi halqaro normalar va standartlarga izchillik bilan muvofiqlashtirib borish zarur.

Qonunlar hayotiy, amaliyot bilan uzviy bog'liq bo'lishi va undan kelib chiqishi lozim. Bunda qonunlar to'g'ridan-to'g'ri amal qilish kuchiga ega bo'lishi kerak. ijro etuvchi organlar qonun osti xujjatlarini qonunga qo'shimcha kiritish sifatida emas, balki ularning ijrosini ta'minlash uchungina qabul qilishlari mumkin, deya alohida ta'kidlagan edi¹.

Qonun ustivorligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri ham fuqarolarni qonunlarga itoatkorlik ruhida tarbiyalash, har kimda, asosan yoshlarda qonunga hurmat tuyg'usini shakllantirishdan iboratdir.

Uchinchidan, qonunga itoatkorlik masalasi. Qonunga itoatkorlik – jamiyatning ijtimoiy munosabatlari va huquqiy madaniyat rivojlanishi jarayonida shakllanib turadigan hodisadir. Qonunga itoatkorlik to'g'risida huquqning shaxs erki bilan uzviy boshqa jihatlari bo'lganidek, sobiq sovet saltanati yillarida qariyb hech nima yozilmadi. Shu boisdan hozirgacha qonunga itoatkorlik ilmiy ahloqiy va huquqiy tushuncha sifatida o'ziga munosib tadqiqotlarga ega emas.

Yoshlarning qonunga itoatkorligi ularning yuksak huquqiy onglilik, jamiyat va davlat manfaatlarini chuqur tushunib yetib, ijtimoiy burch, davlat va jamiyat oldidagi javobgarlik tuyg'ularida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga qonunga ko'r-ko'rona itoat etish emas, balki uning moxiyatini, talab va tartiblarini ongli ravishda bajarishlari lozim. 2000yil may oyida Toshkent shaxrining bir necha Oliy o'quv yurtlarida olib borilgan sosiologik tadqiqot natijalariga ko'ra: «Nima sababdan insonlar qonunlarga amal qilishadi?» – degan savolga 39,2% respondent «Jazolanishdan qo'rqanliklari uchun» deb javob berishgan. Qolganlarning bir qismi qonunni buzish mumkin emasligi, jamiyat va odamlar uni muhokama qilishidan qo'rqishini va boshqa sabablarni ko'rsatishgan. Yoshlar qonun normalariga jazolanishdan qo'rqib emas, balki ixtiyoriy ravishda amal qilishlari zarur. Bu ularning ichki e'tiqodlariga aylanmog'i lozim.

¹ У.Тожионов. Ўзбекистонда мустақил давлатчиликнинг ҳуқуқий маънавий муаммолари.

Akademik Sh.Z.Urazayev ta'kidlashicha, qonunlarga rioya qilish odati chuqur anglangan ehtiyoj bo'lishi kerak. Bu ehtiyojning realligi shundaki, yosh inson muayyan huquqiy me'yorlarni bajarish chog'ida har gal qonun talablaridan bajarishdan formal zaruriyat uning asosiy ichki ehtiyojiga aylanib qolgani uchun u mazkur talablarni tegishli qabul qiladi¹. Qonunlarga rioya qilish odati haqidagi masalani ko'rib chiqqan vaqtda, uning qo'llanish sohalarini turlicha bo'lishi mumkinligini E.M.Abzalov ishida uchratamiz. Bu birinchidan, huquqning u yoki bu me'yorini bajarish odatini va ikkinchidan barcha huquqiy talablarni bajarish odatini farqlash kerak².

Yoshlarda qonunlarga itoatkorlikni shakllantirish uchun, ularda ishonch xissini qaror toptirish lozim. Agarda mansabdor shaxslarning o'zlari qonunga itoat qilmas ekanlar, bu yoshlarda qonunga bo'lgan ishonchsizlikni yuzaga keltishiga sabab bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari» nomli asarida, - «O'tish davrining muayyan qiyinchiliklari sharoitida fuqarolar ongida, ayniqsa yosh avlodning bir qismida, hayotda yuksak turmush darajasiga erishishning asosiy usuli qonunga hilof faoliyat bilan bog'liq degan mutlaqo ahloqqa zid nuqtai nazar bilan boylik orttirishga intilish, basharti u jamiyatning va huquqiy nazoratning e'tiboridan chetda qolsa ayoniqsa hayotga endigina qadam qo'yib kelayotgan yoshlarni yomon yo'lga og'diradi. Axir jamiyat va davlat uchun yosh avlodning ahloqan buzilishi va yuztuban ketishilan ham ayanchliroq, halokatliroq hol bormi o'zi?» – deb xalqimizga murojaat etdilar³. Yoshlar orasida huquqiy madaniyatning tarkib topishida va shakllanishida mansabdor shaxslarning hatti – harakatlari, muomala madaniyati katta ta'sir kuchiga ega. Ayrim mansabdor shaxslarning o'zlari qonunlarni mensimasligi, ko'ra bila turib uni buzishi, boshqalarga nisbatan kalondimog'lik bilan munosabatda bo'lishi yoshlarga

¹ Ш.Уразаев. Модел закона: какой ей б'ют?-Т.1990.40-с.

² Э.М.Абзалов. Ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш муаммолари. ЮФН илмий даража учун диссерт.-Т. 2000. 72-с

³ И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолотлари. Т. Ўзбекистон. 1997 й. 90-с.

ayniqsa, yuridik sohadagi shaxslarga huquqiy negilizm (norma va qonunlarni inkor etish)ni keltirib chiqaradi. Qonunlarga itoatsizlik huquqbuzarlik uchun jazo muqarrarligi, qonun oldida hamma tengligini har bir yosh chuqur anglab yetishi kerak. Birinchi Prizedent I.A.Karimov aytganidek: «Huquqiy davlatning belgisi – barcha fuqarolarning qonun oldida tengligi, Konstitutsiya va qonunlarning ustunligi prinsipini ta'minlashdir». Amir Temurning quyidagi so'zlarini shu o'rinda eslash joizdir: «Hokimlar va raiyatdan qaysi birining halqqa jabr – zulm yetkazishini eshitsam, ularga nisbatan shariatga muvofiq odamlar o'rtasida muhokama qildim»¹ to'rtinchidan, yoshlarning o'zlarining olgan o'zlashtirgan huquqiy bilimlarini hayotga tadbiq eta olishlari, yoshlar huquqiy madaniyatining o'ziga xos tomonlaridan biridir.

Yoshlarning huquqiy madaniyat – huquqqa doir bilimlarni shunchaki o'rganib olish emas, balki ulardan huquq – targ'ibotni va qonuniylikni mustaxkamlashga ongli suratda yo'naltirilgan amaliy faoliyatda foydalana olishidir. Agar bu bilim va ishonch yoshlarning amaliy faoliyatida yuzaga chiqmasa, u o'likdir va jonsizdir.

Beshinchidan, yoshlarda yuksak darajadagi huquqiy faollik masalasi. Huquqiy faollik shaxsni faol hayotiy pozisiyada turishiga undovchi omillardandir. Faol hayotiy pozisiya va fuqarolik burchiga ongli munosabat huquqiy faollikning bir-biridan ajratib bo'lmaydigan, birgalikda namoyon bo'ladigan ikki elementini tashkil etadi. Huquqiy faollik yonlarning tashabbukorligi va ijodiy faoliyatida o'z aksini topadi. Biz yoshlarni yuksak darajada huquqiy madaniyatga ega deb aytishimiz mumkin, qachongina uning huquqiy ongi hayotga faol vazifalarni bajarishga qodir bo'lsagina. Huquqiy faoliyat yoshlarning huquqiy savodxonlik, huquq va qonunlarga bo'lgan hurmatiga tayanadi. Yoshlarning ijtimoiy-huquqiy faolliklarini oshirishning muhim omillaridan biri, ularning Respublika, viloyat, shahar, tuman, qishloq, muassasa, oliy o'quv yurtlari miqyosida davlat va jamoat boshqaruvi ishlarida faol qatnashishlari hisoblanadi. Yoshlarni boshqaruvda ishtirok etishi o'ziga quyidagilarni kiritadi: davlat va mahalliy ahmiyatga molik

¹ Тему́р тузуқлари. Б. Ахмедов. А.Аминов.-Т. Наврӯз. 1992 й. 17-с

qonunlarni muhokama va qabul qilish, turar joy, mahalla, o'quv muassasalari majlis va yig'ilishlarida ishtirok etish.

Huquqiy faollikni shaxs huquqiy madaniyatining unsurlari sifatida qarashda ilmiy adabiyotlarda turlicha fikrlar berilgan. Ammo huquqiy madaniyat muammosi bilan shug'illangan ko'plab huquqshunos olimlar huquqiy faollikka alohida o'rin berishgan¹. Hatto ayrim olimlar ijtimoiy faollikni huquqiy madaniyatning asosiy elementi sifatida qarashgan². Ijtimoiy faollik Asosiy qonunimizda ham o'zining huquqiy asosini topgan. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining 33 – moddasida, fuqarolarning o'z ijtimoiy faolliklarini qonunlarga muvofiq mitinglar, yig'ilishlar va namoyishlar shaklida amalga oshirish huquqiga egadirlar, - deb ko'rsatilgan³. Shuningdek, fuqarolarning huquqiy-siyosiy faolliklarini jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita ham o'z vakillari orqali ishtirok etishda namoyon bo'ladi (32-modda). Hozirgi kunda shaxsning ijtimoiy faolligiga katta e'tibor berilmoqda. Umuman ijtimoiy faollik deganda, insonning turli sohadagi ya'ni, ishlab chiqarish, mehnat, ijtimoiy-siyosiy, madaniy-mafkuraviy sohadagi faolligi yig'indisi tushuniladi⁴. Shuningdek, faollik va tashabbuskorlik tushunchalari ham bir-biri bilan uzviy bohliqdir. Chunki tashabbuskorlik uning asosini tashkil etuvchi faolliksiz yuzaga kelmaydi. Shu sababli yoshlarning faollligi huquqiy madaniyatni shakllantirishda hal etuvchi rol o'ynadi.

A.F.Nikitin huquqiy madaniyat tushunchasiga ta'rif berib uning mohiyatini ochib berar ekan, uni bino shaklida tasavvur etishni taklif etadi va bu bino 3 qavatdan iborat deb ko'rsatadi. Binoning birinchi favatiga huquqiy bilimlar va ulardan foydalana olishni joylashtiradi. Ikkinchi kavatga huquqqa bo'lgan munosabatni va nihoyat uchinchi qavatga huquqiy mazmunga ega bo'lgan vaziyatlarda shaxsning faoliyati va hulq – atvorni kiritadi. Bu uyning poydevorini uni ahloqiy va mafkuraviy, siyosiy qarashlar, e'tiqodlar tashkil etadi⁵.(1-sxema)

¹ Е.А.Зорченко. Воспитание правовой культурѣ молодежи. Минск. Бел. 1986. 34-38-с


² У.Тожионов.А.Саидов.Хукукий маданият назарияси.ЎзР ИИВ акад. 1998 й. Т. 46-47-с.

³ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси.-Т.Ўзбекистон. Н.М.И.У. 2008 й.

⁴ Н.И.Кейзеров. Политическая и Правовая культура.-М.Юрид.лит.1983 г. 167-с.

⁵ А.Ф.Никитин. Что такое правовая культура?.-М. Просвещение.1988 г. 23-26-с

Yoshlarning huquqiy madaniyatini o'ziga xos tomonlarini e'tiborga olgan holda, ular huquqiy madaniyatida huquqiy faollik va tashabbuskorlikni ham muhim unsur sifatida qarab, A.F.Nikitik fikrini to'ldirgan holda «Huquqiy madaniyat binosi»ga 4-qavatni joylashtirishni lozim topdik.(2-sxema)



Hulosa qilib aytganda, talaba yoshlarning huquqiy madaniyati deganda – ularning huquqiy savodxonlik darajasi, qonunlarga bo'lgan hurmati, huquqiy normalarni ijro etish, hayotga tadbiq eta olish ko'nikmalaridir, huquqbuzarliklarga nisbatan murosasizlik, huquqiy faollik hamda tashabbuskorlik darajasi tushuniladi.

1.3. Yoshlarda huquqiy, ahloqiy, siyosiy madaniyatning uzviy aloqadorligi

Madaniyat inson malakalari, bilimlari, g'oyalari va hissiyotlarini, shuningdek turli ijtimoiy hodisalarda uning mustahkamlanishi va moddiy hodisaga aylanishining yig'indisi sifatida siyosiy, huquqiy jabhada o'z aksini topadi. Modomiki, siyosiy va huquqiy madaniyatning fundamental tamoyili g'oyalari turmushga tadbiiq etilar ekan, buning asos zahirida, oxir-oqibat madaniyat yotadi. Yagona madaniyat tizimining tarkibi hisoblangan huquqiy, siyosiy, ahloqiy madaniyat har doim uzviy aloqada bo'ladi. Jamiyatning o'ziga xos ma'lum madaniyat darajasi bo'lib, uning har bir a'zosida shu madaniyatning belgilari mavjud bo'lladi. Ammo biz hozirda jamiyatimiz a'zolarida, shuningdek yoshlarda siyosiy, huquqiy madaniyat belgilari to'la shakllangan deb ayta olmaymiz. Bir-biriga ko'maklashuvchi, bir-birini ta'minlovchi, bir-birini to'ldiruvchi siyosiy va huquqiy madaniyat yaxlit holda tadqiq etilar ekan, u shakl va mazmun, sabab va oqibat, imkoniyat va haqiqat sifatida maydonga chiqadi. Ma'lumki huquq ham siyosat ham o'zida yagona ijtimoiy mazmunni mujassam etadi. Siyosiy vakuum bo'lgan joyda huquqiy faoliyat ko'rsatish mumkin emas. Siyosiy madaniyat va huquqiy madaniyat davlat, demokratiya, ozodlik va mas'uliyat to'g'risidagi eng ibtidoiy tushunchalarga borib taqaladi. Bu g'oyalar hamisha dolzarb bo'lib, ijtimoiy o'zgarishlar davrida ular faqat aksiologik ahamiyatgagina emas, balki amaliy ahamiyatga ham egadir. Siyosiy va huquqiy qaashlar, nazariyalar bir-biridan ajralmas bo'lib ular hamisha yonma-yon boradilar. Odamning fe'l atvori boshqaruvchilari bo'lgan siyosiy va huquqiy qarashlar qonunlarda, deklarasiyalarda, konsepsiyalarda, nazariyalarda o'z ifodasini topadi. Siyosiy va huquqiy madaniyat o'zaro aloqadorlikda bir-birini boyitib keladi. Siyosiy madaniyatning norma va prinsiplari huquqning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadi, chunki ular ijtimoiy hayotimizda alohida o'rin tutadi. Yuqoridagi boblarda huquqiy madaniyatning mohiyati yoritib berildi, ammo siyosiy madaniyat deganda nimani tushunamiz? Siyosiy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi bo'lib, u

insondagi siyosiy bilimlar, baholashlar, malakalar hamda harakatlar darajasi, характери va mazmunini tashkil etadi. Huquqiy madaniyat umuminsoniy madaniyatning ajralmas qismi bo'lsa, siyosiy madaniyat uning o'zagidir. Ma'lumki inson o'z ongida aks etayotgan narsalarni hodisalarni qayta fikrlab tafakkur qilib, aks etayotgan narsalarni qamrab olishga qodir bo'lsagina, har qanday madaniyat obyektiv harakat qiladi.

Har bir yosh avlod jamiyatning siyosiy, huquqiy, ahloqiy madaniyatini egallaganda, o'zidan avvalgi avlodlarning ijtimoiy-siyosiy tajribalariga yondashadi va ularni o'z ongidan o'tkazadi, yaxshilarini olib, faoliyatida tadbiiq qiladi, bu bilan o'zining madaniyatini yuksaltiradi.

Yoshlarda huquqiy, siyosiy ahloqiy madaniyatni qaror toptirishda avvalo ularning dunyoqarashlarida, tafakkurida umuminsoniy qadriyatlar, milliy qadriyatlar bilan uyg'unlikda milliy istiqlol mafkurasi ham singishi lozim. Ana shu dunyoqarash shakllangandan so'ng uni himoya qilishga qodir huquqiy, siyosiy, ahloqiy madaniyat shakllanishiga shart-sharoitlar yaratish zaruriyati tug'iladi. Chunki huquqiy, siyosiy madaniyat va huquqiy himoyaning mavjudligi jamiyat demokratlashuvining asosiy kafolatlaridan biridir.

Darhaqiqat, jamiyatda aholining huquqiy, siyosiy faolligi davlat va jamiyat qurilishini erkinlashtiradi. Bu haqida Birinchi Prezident Islom Karimov ikkinchi chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida «O'z haq-huquqlarini taniydigan, o'z kuchi va qobiliyatiga tayanib yashaydigan, atrofida ro'y berayotgan voqeya va hodisalarga mustaqil munosabatda bo'ladigan, shu bilan birga o'z shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin shaxsni shakllantirish uchun barcha zarur sharoitlarni yaratish darkor»- deb ta'kidlaydi¹. Yoshlarda siyosiy, huquqiy madaniyat qanday paydo bo'ladi? Ko'p o'qigan, nazariy bilimlarni egallagan bilan yoshlarda huquqiy, siyosiy madaniyat paydo bo'lib qolmaydi. Ularni aql-idrok, vijdon va iymon bilan anglamoq lozim. Siyosiy, huquqiy, axloqiy bilim va qarashlardan

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт- пировард мақсадимиздир. Т.: Ўзбекистон, 2000 й. Б-32

millat vatan, tarxiiy mas'uliyatli davrlar talab imkoniyatlarini hisobga olib foydalanmoq kerak.

Asosiy qonunimizning «Siyosiy huquqlar» deb nom olgan bobining 32-moddasida O'zbekiston Respublikasi fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga egadirlar deb ko'rsatilgan. Bunday ishtirok etishlar o'zini-o'zi boshqarish, referendumlar o'tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish yo'li bilan amalga oshiriladi, deyilgan. Yoshlar o'zlarining huquqlaridan foydalangan holda siyosiy madaniyatni shakllantirib boradilar. Raqamlarga murojaat etadigan bo'lsak, Toshkent shahrida terrorizm va diniy eksterimizm holatlari bo'yicha 1999 yil 1 yanvardan 2000 yil yanvarigacha qo'zg'atilgan jinoiy ishlar jami 716 tani tashkil etadi.

Ularning 30 tasi 18 yoshga to'lmagan voyaga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilgan. Shuningdek, jinoyatlarning 332 tasi 18-25 yosh orasidagi yoshlar 190 tasi 25-30 yoshgacha bo'lgan yoshlar, 94 tasi 30-35 yoshda bo'lgan shax'slar tomonidan sodir etilgan. Ko'rinib turibdiki bu turdagi jinoyat subyektlarining 72,8 % ini 30 yoshgacha bo'lgan shaxslar tomonidan sodir etilgan. Bular ichida 12 ta talaba bor. Jinoyatchilarni 80% hiech qayerda ishlamaydi¹. xo'sh bu xildagi salbiy holatlarning paydo bo'lishida ma'lum bir to'dalarning va qo'poruvchi guruhlarining aniq maqsadlarini amalga oshirishlari uchun shart-sharoitlar yaratib berayotgan obyektiv subyektiv sabablarga e'tibor qarataylik:

1-dan, chet noqonuniy diniy oqimlarning yurtimizga suqilib kirib, hokimiyatni egallash maqsadida, eng iqtidorli yoshlarimizni turli yo'llar bilan o'zlariga og'dirib olishga harakat qilishlari:

-2-dan bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida ba'zi bir moddiy qiyinchiliklar-yoshlarimizning vaqtincha moddiy qiyinchilik tufayli noqonuniy ishlarga qo'l urishi hollari;

-o'quv maskanlarida milliy qadriyatlarimizni huquqiy-siyosiy tizimimizni targ'ib etuvchi tadbirlarning talabga javob yermasligi;

¹ Э.М.Абзалов. Ёшларнинг ҳуқуқий маданиятини шакллантириш муаммолари.

-4-dan, ba'zi o'quv muassasalarida o'qituvchilar va murabbiylarning talabaga nisbatan manfaatparastlik ularning ta'lim tizimiga, tarbiyaga bo'lgan qiziqishlarning pasayishiga olib kelish hollari;

-5-dan, oilada nosog'lom muhitning yuzaga kelishi, ya'ni ba'zi ota-onalarning ma'naviy qashshoqligi oqibatida, ularga taqlid qilgan yoshlarning paydo bo'lishi;

-6-dan yoshlarning ma'naviy qashshoq do'stlar davrasiga tushib qolishi;

-7-dan, yoshlarning bo'sh vaqtlari yetarli darajada e'tiborga olinmaganligi, nazoratsiz qolayotganligidir.

Jamiyatimizning buyuk oqibatini va istiqbolini ta'minlash uchun yoshlarga jamiyatning barcha jabhalarida shu jumladan oliy ta'limda ham dunyoviy va diniy bilimlarning uyg'unligini singdirish, ularda tinchlik madaniyatini shakllantirish lozim bo'ladi. 2-chaqiriq O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ushbu masalaning dolzarbligini yana bir bor ta'kidlaydilar. «Xalqimizning tabiatiga mutloqo yot bo'lgan siyosiy, diniy eksterimizm, aqidaparastlik va boshqa yovuz oqimlarning mintaqamizga kirib kelishi va tarqalishi tinchlik va osoyishtalikka, farzandlarimizning kelajagiga katta xavf tug'dirishini odamlar ongiga chuqur singdirib borish kerak»¹. Madaniyat tushunchasini o'rganish jarayonida siyosiy, huquqiy ahloqiy madaniyatni rivojlanish darajasi bilan uning mazmunini farqlash juda muhim. Ularning mazmunini aholining ijtimoiy guruhi, jumladan yoshlar sherik bo'lgan siyosat, huquq, mafkura, axloq mazmunlari belgilaydi. Siyosiy, huquq, ahloqiy madaniyat darajasi esa jamiyatning aniq mexanizmida nomayon bo'ladigan, mazmunan boyitilgan izchil darajadir. Davlatimizda yuz berayotgan jarayonlar shu vaqtgacha an'anaviy bo'lib kelgan ilmiy izohlarni keskin o'zgartirmoqda. Masalan: inson huquqlari nuqtai nazari jihatidan baholash, yangicha yondashishlarni keltirib chiqqan holda qonunda ta'qiqlanmagan barcha narsalar jamiyat foydasiga xizmat qilishi kerak. Shu sababdan siyosiy, huquqiy ahloqiy madaniyat alohida ahamiyat kasb etmoqda, chunki ularning mazmunida insonparvarlik, umuminsoniy

¹ И.А.Каримов. Озод ва обод Ватан Эркин ва фаровон ҳаёт- пировард мақсадимиз. Т.: Ўзбекистон, 2000 й. Б-25.

qadriyatlar mujassamdir. Yoshlarda siyosiy, huquqiy, ahloqiy madaniyat yuksalishining o'ziga xos kafolatlari bo'lib ular quyidagilar hisoblanadi:

1-dan, siyosiy, ma'naviy, huquq fikrlarning ilg'or g'oyalarini o'ziga singdirilganligi,

2-dan, iqtisodning yuqori darajasi uning barqarorligi:

3-dan, qonunlarning takomillashganligi:

4-dan, qonun ustuvorligi:

5-dan, sharq mutafakkirlarining huquqiy, siyosiy, axloqiy qarashlari va g'oyalarining o'zida mujassamlashtirganligi. Yoshlar bilan bo'lgan suhbatlar, ochiq va yopiq holdagi sosial tadqiqotlar bizga ularning huquqiy ongiga, huquqiy madaniyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni aniqlashga imkon berdi. Bular quyidagilardir: yoshlarda umumiy dunyoqarashning torligi, hamma narsani pul bilan o'lchashi, atrofdagi salbiy fe'l-atvorli shaxslarning ta'sir etishi va boshqalar.

Hozirgi kunda yoshlar huquqiy madaniyatini shakllantirishda o'ziga xos to'siq bo'layotgan omillar: qonunlarga rioya etilishini ta'minlovchi ta'sirchan mexanizmlarning to'la kuch bilan ishlamayotganligi: ayrim mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarni ko'r-ko'rona buzilishi; o'quv yurtlarida huquqshunoslik faniga kam soat ajratilganligi: ushbu fan ta'lim muassasalarida hammasida ham huquqshunos mutaxassislar tomonidan o'qitilmayotganligidadir. Huquq normalarini mukammallash-tirishda axloq katta rol o'ynaydi, huquq normalari esa uni odamlar ongiga singdirishda yordam beradi. Huquqiy, siyosiy madaniyatning ahloqiy madaniyat bilan bog'liqligi, quyidagi ahloq kategoriyalarida nomayon bo'ladi: to'g'rilik va haqqoniylik, insoniylik va ishonch, vijdon va javobgarlik hissi hamda boshqalar. Konstitusiyaviy normalarda ham ahloqiy prinsiplarni, huquqiy va ahloqiy majburiyatlar birligi mustahkamlanib qo'yilgan: 48-moddasida «Fuqarolarning Konstitusiya va qonunlarga rioya erkinliklari, sha'ni va qadr-qimmatini hurmat qilishga majburdirlar»¹. D.A.Karimov turli fanlarning ahloqiy-huquqiy ta'sirini ishlab chiqish, vazifa va yo'nalishini aniqlash kerak degan asosli savol qo'yadi. Buni amalga oshirish uchun quyidagi muammolarni hal qilish

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Т.: Ўзбекистон. Н.М.И.У. 2008 й.

zaruratini ko'rsatadi. Huquqiy va ahloqiy ijodkorlikning ahloqiy asoslanishi va axloqni rivojlantirishda huquqning o'rna, ahloqiy va huquqiy normalarni hayotga tadbiq etishda ularning o'zaro harakatda bo'lishligi. Yuridik adabiyotda tan olinishicha huquq va ahloqning nufuzi- insonlarning davlatda qilinayotgan ishlarga ichki munosabatidir. Darhaqiqat, huquqning mavjudligi qonunlarning moddalari va qismlarida emas, balki butun jamiyatning shu jumladan uning har bir a'zosining ongida qay darajada aks etishi bilan bog'liq. Abu Nasr Farobiy o'zining «Fozil odamlar shahri» nomli asarida ahloqiy kamolot shartlari va asoslarining sharhiga alohida to'xtalib, ahloqiy kamolotga erishish, avvalo, shaxs jamiyat a'zolari bilan faoliyatda mushtarak munosib bo'lsa, uning ongida nafaqat shaxsiy, balki ijtimoiy manfaatlarga ham moyillik yuzaga kelishi orqali amalga oshirishini ko'p bor tilga oladi. Shuningdek, huquq va ahloqning o'zaro uzviy aloqadorligini Z.Islamov chuqur tahlil qiladilar. Huquq va ahloq o'rtasidagi nisbatlar yetarli darajada murakkab, u birlik tafovut, hamkorlik va qarama-qarshiliklardan iborat to'rt tarkibiy qismni o'z ichiga olishini o'z asarida ko'rsatib o'tadi¹. shu bilan birga taniqli olim «Ahloq qoidalarini buzmay turib davlat qonunini buzish mumkin emas» degan fikrlari bilan ahloq- va huquqning uzviy bog'liqligini bir so'zda ifodalaydilar². Hozirgi kunda ahloqiy madaniyat yoshlar hayotini yuksak ijtimoiy mantiq bilan, mazmun bilan to'ldiradi, jamiyatda uchrab turuvchi ijtimoiy taraqqiyotga to'siq bo'luvchi hurofot va illat. Huquqiy, siyosiy madaniyat kabi ahloqiy madaniyat darajasini oshirish zarurati hozirgi sharoitda mustaqil O'zbekistonning mafkuraviy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun ham muhim hisoblanadi. Yoshlarning ahloqiy madaniyati mohiyati ularning individual ongini va amaliy faoliyatini milliy va umuminsoniy tamoyillar darajasiga olib chiqilishi bilan alohida xususiyatga egadir. Ayni vaqtda yoshlarning ahloqiy madaniyatining asosiy xususiyatlari ahloqiy bilimlar, his-tuyg'ular, e'tiqod va amaliy ishlarda nomayon bo'ladi. Huquqiy va axloqiy madaniyatni shakllantirish turli yo'nalishlarda amalga oshirilsada, quyidagilar asosiy faktor bo'lib ko'rsatiladi. 1-

¹ Исломов З. Общество Государство Право Т. Адолат 1998 йил 24-28 бет.

² Исломов З, Хусанов О, Мирхамидов И. Хукукшунослик. Маърузалар матни. Т.: 2000 й. 47-б.

dan, yoshlarga huquqning ahloqiy qimmatini jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatchisi ekanligini ko'rsatish va asoslash. Huquq nafaqat jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy asosini va siyosiy tuzumini mustahkamlaydi, balki insonlarning hattiharakatini ijtimoiy jihatdan tartibga soluvchi, ilmiy va madaniy qadriyat sifatida nomayon bo'ladi. Huquq insonlarning ijtimoiylashuvining, ma'naviy barkamollashuvi, dunyoqarashning kengayishi, insoniyatning madaniy boyliklarini o'zlashtirishning asosiy vositasidir¹. +aysidir ma'noda huquqiy madaniyatni siyosiy madaniyatning bir ko'rinishi sifatida qabul qilish mumkin, chunki haqiqatdan ham siyosiy madaniyat huquqiy madaniyatga nisbatan keng qamrovli tushunchadir. U.Tadjixanov va A.Saidovlar o'zlarining «Huquqiy madaniyat nazariyasi» nomli darsligida siyosiy madaniyatga bergan ta'rifi yuqorida keltirilgan fikrimizning yaqqol dalilidir. «Siyosiy madaniyatni dunyoqarashlar maqomida ya'ni odamlarning siyosiy davlat va huquqiy tuzilmalarga bo'lgan munosabatlarni ta'riflovchi tushuncha sifatida tan olish zarur»¹. Huquqiy madaniyat huquqiy ta'sir ko'rsatish mexanizmida mustaqil o'rin tutadi. Ularsiz qonun yaratish ham, ijtimoiy munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solish ham mumkin bo'lmaydi. Chunki huquqning mavjudligi inson bilan chambarchas bog'langandir. Ijtimoiy turmush talablari toki davlat organlarining huquq yaratish faoliyatini amalga oshirishda ishtirok etayotgan odamlarning irodasi va ongi orqali o'tmaguncha yuridik normalar sifatida ifodalanishi mumkin emas. Huquqiy madaniyat ijtimoiy madaniyatning ahloqiy va siyosiy madaniyatga o'xshash bo'lmagan maxsus shakli sifatida nomayon bo'lsada, ammo uncha falsafiy, siyosiy, ma'naviy qarashlar ta'sir etib turadi. Huquqiy madaniyat har bir insonga jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda ongli ravishda va bilimdonlik bilan ishtirok etish, o'z xulq atvorini va faoliyatini tegishli tarzda tashkil etish imkonini beradi. Siyosiy jarayonlarda davlat va jamiyatni boshqarishda shu tariqa huquqiy madaniyat va siyosiy madaniyat o'zaro bir-biriga chambarchas bog'lanib ketadi.

¹ Орзих М.Ф. Личность и право. М. Юрид. 1975 с-101.

¹ Таджиханов У. Саидов А. Хукукий маданият назарияси. Т. Ўзбекистон. РИИВ акад. 1998 й. 33-б

Siyosiy madaniyat jamiyat har bir a'zosining siyosiy onliligi, siyosiy qobiliyati, siyosiy bilimi va ko'nikmalari bilan harakterlanuvchi faoliyatning o'ziga xos ko'rinishidir. Siyosiy madaniyat ijtimoiy madaniyatning boshqa shakllari bilan shakllanib boradi. Jamiyat hayotidagi siyosiy o'zgarishlarning qonunlarda ifoda qilinishi va tartibga solinishi bilan chuqur aloqada va siyosiy mohiyatga ega bo'ladi. Chunki qonunlar va boshqa huquqiy normalarning davlat tomonidan ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi uning faoliyati siyosiy mohiyatga ega ekanligi bilan belgilanadi. Shuning uchun ham huquqiy madaniyat siyosiy madaniyatni o'ziga xos darajada aks ettiradi. Fuqarolik huquqida davlatning fuqarolar bilan o'zaro munosabatlari, ularning huquq va burchlari, ularning jamiyat hayotidagi o'rni va roliga doir masalalarda siyosiy faoliyat aks etadi. Buning ma'nosi shundaki, huquqiy mazmunga ega bo'lgan masalalar yoshlar ongida siyosiyliklashadi, siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zishiga yordam beradi. O'z navbatida siyosiy madaniyatga ega bo'lgan masalalar huquqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanib borishida muhim rol o'ynaydi.

Shuningdek huquqiy, siyosiy madaniyat ahloqiy madaniyat bilan ham chuqur aloqada va dialektik birlikda. Ahloqiy normalarning siyosat va huquq subyektlari faoliyatida nomayon bo'lishi uning siyosiy va huquqiy ong bilan o'zaro aloqadorlikka ega ekanligini ko'rsatadi. Har bir yosh shaxs siyosat va huquqiy munosabatlarning subyekti sifatida ahloqning vijdon, burch, insoniylik, sadoqatlilik va ahloqning boshqa shular singari turlariga munosabatda bo'ladi va ularni o'zida mujassamlashtiradi. Ahloq normalarining yoshlar ongida ijtimoiylashib borishi orqali ular huquqiy siyosiy ong va madaniyatga ta'sir ko'rsatadi. Ma'naviy-ahloqiy madaniyat siyosiy va huquqiy madaniyatga qanchalik ta'sir etsa, o'z navbatida siyosiy, huquqiy madaniyat ham ma'naviy-ahloqiy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida muhim ahamiyatga egadir. Siyosiy-huquqiy voqyea-hodisalarning idrok qilishi, jamiyatda ishlab chiqiladigan va amalga oshiriladigan siyosatning, huquqiy munosabatlarning ahloq normalariga muvofiqligi yoki muvofiq emasligi yoshlarning ongli faoliyati orqali uning alohida nomayon bo'ladi.

Siyosiy, huquqiy-ma'naviy ongi va madaniyati yuqori darajada rivojlangan fuqarolar, shuningdek yoshlar yashaydigan jamiyatgina taraqqiyotning yuksak bosqichlariga ko'tarila oladi. O'zbek xalqi siyosiy, huquqiy, ahloqiy madaniyatning manbalari, zaminlari, sharq mamlakatlari madaniyatiga borib taqaladi. Sharq nihoyatda xilma-xil bo'lsada, sharqona jamiyatlar uchun muayyan o'xshash xususiyatlar xos ekanligini ta'kidlash lozim. Ustuvor darajada individuallikka yo'naltirilgan g'arb insoniga qarama-qarshi sharq kishisi jamoaga ma'naviy bog'liqlikni o'zida ifoda etadi. Yuqorida qayd qilingan fikrlardan shunday xulosa qilishimiz mumkinki siyosiy, huquqiy, ma'naviy-ahloqiy madaniyatdagi birgalikdagi harakati yagona holda bo'lib, parallel rivojlanishi emas, balki madaniyatining bu turlarini uzviy ravishda chatishib ketishi, birgalikdagi ta'siri, bir-birini boyitishi ijtimoiy boshqaruv sohasida madaniy qadriyatlar tashkil bo'lishini harakterlaydi.

Ma'lumki, ta'lim-tarbiyaning asosiy maqsadi- yoshlarda shaxs sifatida yuksak ahloqiy fazilatlarini shakllantirishdan iboratdir. Ahloq bo'lmasa inson ijtimoiy shaxs sifatida shakllanmaydi.

1.4. Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirish

O'tgan asrimiz insoniyat yaratgan ko'plab yangiliklarning, texnik va madaniyat inqiloblarining, ko'plab xalqlar ozodligini guvohi bo'ldi. Ayni paytda asrimiz tarixida qonli urushlarning, zo'ravonliklarning ham o'chmas izlari qoldi. Tarixdagi ushbu xatolarning takrorlanishini oldini olish, inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilish, ta'minlash maqsadida butun insoniyat oldida tinchlikni saqlashdek muhim vazifa turibdi. Yer yuzining turli mintaqalarida sodir bo'layotgan, mohiyatan butun insoniyat boshiga xavf solib turgan turli noxush hodisalarni tahlil qilib, ularning barchasida inson omili bosh sababchi ekanini sezish qiyin emas. Birgina misol. Germaniya olimlarining tadqiqotlariga ko'ra, 1945-1995 yillarda, ya'ni qirg'inbarot 2-jahon urushidan keyingi 50 yillik «tinchlik hukm surgan davr»da insoniyat atiga 26 kun tinchlik nashidasidan bahramand bo'lgan ekan. Ana shu yillar davomida turli xil majorolar o'p'qonida 25 mlndan 35 mlngacha kishi begunoh halok bo'lgan. Nemis olimlari o'z tadqiqotlarida millatchilik, zo'ravonlik va diniy eksterimizmning barchasi odamzodda aql, zakovat, madaniyat va ma'rifat yetishmagani tufayli sodir etilgan, degan ibratli xulosani bildirishgan¹. XXI asrda yashar ekanmiz bugungi kunda insondan keskin sifat o'zgarishi o'z-o'zini anglab olishni talab qilmoqda. Tinchlik madaniyati va zo'ravonlikka qarshi harakatga jahonning turli burchaklarida turli darajada faoliyatlar olib borildi. Tinchlikni targ'ib etuvchi, zo'ravonlikka qarshi kurashuvchi, ijtimoiy haqiqatni o'rnatish uchun harakat qilgan davlat arboblari va nomayondalarini ko'plab keltirib o'tishimiz mumkin. Ular qatoriga Maxatmagandi Martin Lyuter King, Nelson Mandella, Albert Shveyser, Danlo Dolchi, Mat Tereza va boshqa minglab tinchliksevarlarni keltirib o'tish mumkin.

O'zbekiston o'z istiqlolining birinchi kunidanoq jahon hamjamiyati oldida tinchlik madaniyatini namoyish qilib kelmoqda. Bunga misol tariqasida I.A.Karimovning 1993 yil BMTning 48 va 1995 yil 50 sessiyalarida, 1994 yil YeHXT sessiyasida, 1996 yil Lissabondagi sammitda, BMTning Markaziy

¹ Ш.Фахриддинов. Ижтимоий тахдидни англаш зарурлиги. Тафаккур. 1999 й, № 3, Б-105

Osiyoda xavfsizlik, barqarorlik va hamkorlikka asoslangan doimiy faoliyat ko'rsatuvchi seminarda, Markaziy Osiyoda yadro qurolidan ozod hududni tashkil etish to'g'risidagi anjumanida, 1996, 1998 yillar YuNUSKO ijroiya kengashining sessiyalarida, markaziy Osiyo iqtisodiy hamjamiyati davlatlararo Kengashining majlislarida, iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (EKO) sammitlarida, davlat tashriflarida va boshqa nufuzli yig'ilishlarida so'zlagan nutqlarida o'rta tashlangan fikrlari yurtimizda, mintaqamizda rivojlanishni tinchlikni ta'minlovchi barqaror tayanchga aylantirdi. I.Karimov 1996 yil 26 aprelda bo'lib o'tgan YuNUSKO Ijroiya Kengashi sessiyasida so'zlagan nutqida BMTning tinchlik siyosatini qo'llab-quvvatladilar. «O'zbekiston YuNUSKO bosh direktorining o'ning nizomidagi asosiy qoidalar: kishilar ongiga tinchlik g'oyasini singdirish hamda barqaror taraqqiyotga ko'maklashishga sodiqligini saqlab qolishiga qaratilgan sa'y-harakatlarini qo'llab quvvatlaydi»¹. Insonlar ongida tinchlikni saqlash uni himoya qilish g'oyasini qaror toptirish maqsadida BMT va uning ixtisoslashgan Kengashlari ushbu masalaga e'tiborni qaratmoqda. Ayniqsa BMTning YuNESKO kengashi bu sohada o'zining hissasini qo'shib kelmoqda. Tinchlik madaniyati g'oyasi 1-marta 1989 yil bo'lib o'tgan. «Tinchlik- odamlar ongida» mavzusidagi xalqaro Kongressda ilgari surilgan edi. Hozirgi kunda YuNESKO tomonidan tinchlik madaniyati dasturi keng yo'lga qo'yilmoqda. 1995 yilda bo'lib o'tgan YuNESKO Bosh Konferensiyasining 28-sessiyasida qabul qilingan 1996-2001 yillarda o'rta muddatli strategiya to'g'risida qabul qilingan 012 rezolyusiyani eslatib, unda XX asr oxirida asosiy vazifa urush madaniyatidan tinchlik madaniyatiga o'tishning boshlanishini e'lon qilgan edi. BMT tomonidan yangi asrimizning 1 yili ya'ni 2000 yil Xalqaro tinchlik madaniyati yili deb e'lon qilinda va uni o'tkazishdagi yetakchi rolni YuNESKOGa yukladi.

Tinchlik madaniyati va a'zo davlatlarning YuNESKO faoliyati bilan bog'liq Deklorasiyasini ko'rib chiqish uchun YuNESKO Ijroiya Kengashining 155-sessiyasining yakuniy majlisi 1998 yil 6 noyabrda Toshkentda bo'lib o'tdi va unda «Tinchlik madaniyati va YuNESKOning a'zo davlatlardagi faoliyati» to'g'risida

¹ I.Каримов. Маънавий юксалиш йўлида. Т. Ўзбекистон. 1998 йил Б-254

Toshkent deklarasiyasi qabul qilindi. Unda «a'zo davlatlar» BMT tizimi muassasalari, boshqa hukumatlararo va nohukumat tashkilotlarga xalqaro tinchlik madaniyati yilini 2000 yilda xotirada qoladigan tadbirlar bilan nishonlash, uni yaxshi o'tkazish uchun hozirdanoq barcha choralarni ko'rishni taklif etadi va bu bilan bardoshlilik va bir-birini tushunish, qashshoqlik va begonalik bilan kurashish qadriyatlarini tasdiqlanadi. Bu esa eng avvalo, ayollar va yoshlarga foyda keltiradi» deyilgan¹.

Davlatimiz Birinchi Prezidenti I.A.Karimov YuNESKO Ijroiya Kengashi sessiyasining 155-yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqida tinchlik madaniyatini qat'iy qo'llashini izhor etib, «Mening nazarimda, tinchlik madaniyati g'oyasi XXI asrdagi umuminsoniy taraqqiyot falsafasining manbai bo'lib xizmat qiladi. Bu g'oya bugun ham dunyoda tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish yo'lida xalqlarni birdamlik va hamkorlikka da'vat etishi lozim» dedilar. Mamlakatimizda turli dinlarning totuvlikda yashab kelganini, buning uchun esa barchaning birgalikda yashash imkoniyati borligi tasdig'i ekanini eslatib, «kirib kelayotgan XXI asrda dunyoni madaniyat va ma'naviyat qutqaradi» dedilar².

Ushbu xalqaro hujjatning Toshkentda qabul qilinishining O'zbekiston uchun olamshumul ahamiyatga egadir. Chunki bu mamlakatimizning tinchliksevarligi va tinchlik yo'lida olib borayotgan ishlarning mantiqiy davomi bo'ladi. «Tinchlik» va «madaniyat» so'zlari barchamizga tanish bo'lgan atamalardir. Ammo ularning uyg'unlikda «tinchlik madaniyati» ko'rinishida aks etishi qanday ma'noni anglatadi? Bu savolga tinchlik madaniyatiga bag'ishlangan Deklorasiyasida quyidagicha izoh beriladi: tinchlik madaniyati- adolat va demokratiyaga, bardoshlilik va birdamlik, zo'rlikni rad etuvchi va janjallar boshlanmasdanoq oldini olish, muammolarni muloqot va muzokaralar yo'li bilan hal etuvchi, har bir kishining o'z jamiyati ichki rivojida barcha huquq va imkoniyatlaridan to'liq hajmda amalga oshishini ta'minlaydigan madaniyatdir.

¹ Toshkent Deklarasiyasi. Xalq s'uzi. 1998 yil 13 noyabr.

² I.A.Karimovning YUNESKO ijroiya kengashining 155-yakunlovchi majlisida s'uzlagan nutqi. Xalq s'uzi, 1998 yil 7 noyabr.

Tinchlik madaniyati muammosi o'z ichiga davlatlararo, xalqlararo, millatlararo, shuningdek davlat ichidagi turli guruhlar orasidagi, ijtimoiy kelib chiqishi, yoshi, millati, jinsi, madaniyati va dini turlicha bo'lgan insonlar o'rtasidagi munosabatlarni qamrab oladi. Tinchlik madaniyati doimiy harakatdagi, keng qamrovli, ko'p o'lchamli va ochiq tushunchadir. Uning zamirida dunyoga keng qarash yotadi. U zo'rlik va qurolli to'qnashuvlarni oldini olish, tinchlik o'rnatish, inson huquqlari hurmatini ta'minlash, demokratiyaning chuqurlashtirish va mustahkamlash bilan bog'liq tushunchadir. Tinchlik madaniyati muammosini tahlil qilish va yechish quyidagilarni nazarda tutadi.

-1-dan, tinchlik madaniyatini hayotga tadbiq etish inson faoliyatining barcha asosiy qirralarini o'z ichiga oladi va iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, huquqiy, madaniy, ruhiy, pedagogik va boshqa fanlarning to'qnashuvi hamda kelishuvini nazarda tutadi. Boshqacha so'z bilan aytganda tinchlik madaniyatini umumlashtiruvchi konsepsiyani ishlab chiqish fanlararo tadqiqotni talab qiladi;

-2-dan, tinchlik madaniyatining keng matematikasini ishlab chiqishda olimlarning xalqaro hamkorligining tizimini yaratish lozim va unga boshqa ilmiy fikrlari nomayondalarini ham jalb etish zarur¹;

-3-dan, madaniyat kotegoriyasining ko'p qirraligining o'zi ham bu ishda davlat arboblari, partiya yetakchilari, jamoatchilik harakatining faollarini ham bu ishga ishtirokini kengaytirishni talab qiladi;

-4-dan, ilm-fan va siyosat o'rtasidagi bo'linishni yo'qotish zarur. +isqa qilib aytganda, tinchlik madaniyati qadriyatlarini qaror toptirishda ilm-fan, siyosat, xalq ommasining jamoatchilik o'rtasidagi o'zaro ittifoqini, birligini amalga oshirmoq darkor.

Asosiy e'tibor tinchlik madaniyatining qat'iyiligiga qaratilishi lozim, ya'ni jamiyat rivojlanishining doimiy karakterli belgilaridan biri bo'lib qolishi kerak. Shuningdek, bu yerda bir tomondan fuqarolik jamiyatining turli darajadagi davlat nodavlat institutlari, tashkilotlari rivojlanishi bilan bog'liq tinchlik madaniyatini

¹ Общественные перемены и культуры Мир-М Все Мир- с 57

yaratishning siyosiy tomoni va ikkinchi tomondan esa, individual tarbiyaga qaratilgan psixologik va ta'lim faoliyati aspektari muhimdir.

1995 yil YuNESKOning mas'ul xodimlaridan professor Devid Adamsning nashr qilgan ishi tinchlik madaniyatiga bag'ishlangan bo'lib, unda muallif quyidagi xulosalarga keladi:

✓ Tinchlik madaniyati- murakkab qarashlar va qoidalar yig'indisi bo'lib, u amaliyot asosida rivojlanadi va kengayadi;

✓ Tinchlik madaniyatini targ'ib etishda ayollar ishtiroki juda muhim ahamiyat kasb etadi;

✓ Erkin axborot almashinuvi- tinchlik madaniyatining muhim elementi hisoblanadi;

✓ Tinchlik madaniyati uzoq davom etadigan jarayon bo'lib, u ma'lum bir tizimga solinishini talab etadi;

✓ Tinchlik madaniyati urushlar muzokarani hal qiluvchi vosita bo'lmagan sharoitdagina ravnaq topishi mumkin.

Tinchlik madaniyatini shakllantirishda qonun ishlab chiqish ta'lim tarbiyaviy va boshqa sohalardagi islohotlarning o'rni beqiyosdir. Ammo bu chora-tadbirlar yetarli emas, buning uchun tinchlik madaniyati odamlar e'tiqodida va ishonchida shakllanib, yetilib borishi lozim. Bu uzoq davom etadigan ko'p qirrali jarayonda yoshlarni ushbu ruhda tarbiyalash asosiy o'rinda turadi. O'zbekiston tarixiy merosi boyliklaridan va demokratlashtirish va tinchlik ruhida o'zining madaniy qadriyatlarini saqlash va ko'maytirish xohishidan hamda o'zining tinchlik madaniyatini tiklashga, ko'maklashishga intilishlarini yanada mustahkamlagan holda tinchlik madaniyati yilida O'zbekistonda quyidagi vazifalar amalga oshirilishi lozim:

1-dan, tinchlik madaniyati yilini muvaffaqiyatli yakunlash maqsadida konsepsiya ishlab chiqish:

2-dan, mamlakatimizda tinchlik madaniyati mafkurasini keng yoyish, aholi o'rtasida asosan yoshlarda ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyatini qaror toptirish:

3-dan, jamiyatda haqiqiy madaniyatni va o'zaro hamkorlikni qaror toptirishd fuqarolik jamiyatiga xos institutlarni rivojlantirish, demokratiya va inson huquqlarini ta'minlash:

4-dan, O'zbekistonda «Jamiyatda tinchlik madaniyatini shakllantirish to'g'risida milliy dastur» qabul qilinsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Ushbu dasturni ishlab chiqishda xalqaro tajribalardan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Masalan, Salvadorda Tinchlik madaniyati to'g'risida milliy dastur qabul qilingan va unda ko'rsatilgan vazifalar hozirgi kunda amalga oshirilib kelinmoqda.

Yuqoridagi vazifalarni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qaratish lozim bo'ladi:

-Xalqaro tinchlik madaniyati yilining maqsad va vazifalari bilan jamoatchilikning xabardor qilib borish, YuNESKOning ushbu sohaga bag'ishlangan loyixa dasturlarini amalga oshirishdagi tajribalarini ommaviy axborot vositalari bilan tanishtirib borish:

-tinchlik madaniyatiga bag'ishlab ilmiy-amaliy anjumanlar, maslahatxonlar, davra suhbatlari ommaviy munozaralar tashkil etish va unda xalqaro tajribalardan keng foydalanish;

-aholini, ayniqsa yoshlarni har xizmatchilarni tinchlik, demokratiya va inson huquqlarini hurmat qilish ruhida tarbiyalashning yahlit tizimini shakllantirish;

-mamlakatimiz tadqiqotlarini tinchlik madaniyati dasturlarini amalga oshirishga jalb etib ularni xalqaro hamkorlikda ish olib borishini yo'lga qo'yish.

Insonlar ongida tinchlikni saqlash fikrini qaror toptirishda, ularda tinchlik madaniyatini shakllantirishning dolzarbligi shunda ko'rinadiki, mamlakatimizning, butun jahonning ertangi kuni, hayoti yoshlar qo'lida bo'ladi. Agar ularda ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyatga asoslangan tinchlik madaniyati shakllanmagan bo'lsa, yer yuzida tinchlikni saqlash, zo'ravonlikka qarshi kurash muammosi o'z yechimini topa olmaydi. Shu sababli yoshlarimiz XXI asrga tinchlik madaniyati bilan kirib borishlari lozim.

Yoshlarda tinchlik madaniyati ahloqiy, siyosiy, huquqiy madaniyat shakllangan bo'lsagina qaror topishi mumkin. Chunki insonlarda shakllangan har

qanday madaniyatning negizida tinchlikka yetaklovchi maqsad yotadi, aksincha, tinchlik, totuvlik bo'lmagan joyda esa madaniyatning hech qanday ko'rinishi shakllanmaydi va rivoj topmaydi. Yuqoridagi fikrlarimiz madaniyatning turli ko'rinishlari bir-birini to'ldirib, bir-biriga yordam berib, parallel rivojlanibgina qolmasdan, balki uzviy alohida bo'lishini ko'rsatmoqda.

Yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirishda asosiy e'tibor ularda inson huquqlariga hurmat ruhida tarbiyalashga qaratilishi lozim. Unda inson huquqlari umumjahon Dekloratsiyasi, Bola huquqlari to'g'risidagi Konvensiya, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi Pakt va boshqa shunga o'xshash hujjatlarning asosiy prinsiplaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fikrimizcha yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirish uchun quyidagilarga e'tibor qaratish lozim:

-yoshlar ongida tinchlikni saqlash g'oyasini qaror toptirish hamda tinchlik qaror toptirish hamda tinchlik madaniyatini shakllantirish vazifasini hal etishda ta'lim tarbiya sohasi yetakchi o'rin tutmog'i lozim. Bunga nafaqat ta'limtizimi muassasalari, balki keng jamoatchilik institutlari ya'ni oila, mahalla, ommaviy axborot vositalari, jamoat birlashmalarini ham jalb etish.

-tinchlik madaniyatiga bag'ishlangan uslubiy qo'llanmalar, darsliklarni yaratishni yo'lga qo'yish;

-YuNESKO va boshqa ixtisoslashgan xalqaro tashkilotlar tomonidan nashr etilayotgan adabiyotlarni yoshlarga yetkazish, ularni tarjima qilish;

-Yoshlarni inson huquqlari va demokratiya, tinchlikni saqlash mavzusida o'tkazilayotgan turli tadbirlar, seminarlar, konferensiyalarga qatnashishlarini tashkil etish, tadbir yakunlari, materiallari bilan ularni tanishtirib borish;

-Yoshlar bilan urush qatnashchilari o'rtasida uchrashuvlar tashkil etish kerak, qaysini adolatsizlik, zo'ravonlikning tirik guvohlari, jabrlanuvchilari bilan yuzmayuz uchrashuvlar yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllanishga yordam beradi;

-«Yoshlar va O'zbekistonda tinchlik madaniyati» shiori ostida maxsus loyihalar ishlab chiqib, tinchlikni saqlashda yoshlar faoliyatini oshirishni yo'lga qo'yish lozim.

-Yoshlarni tinchlik madaniyati va zo'ravonlik ruhida tarbiyalashda turli ilg'or texnikaviy kommunikasiya vositalaridan keng foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tinchlikni targ'ib etuvchi filmlar, videoo'yinlar, radio va teledasturlarni yanatish darkor. Vaholanki, hammamizga ma'lum hozirgi kunda ommaviy axborot vositalari aholi namoyish qilayotgan mantiqsiz, zo'ravonlikka asoslangan filmlar, axborotlar tarqalmoqda. Buni esa yoshlar zo'ravonlik hayotda bo'lishi tabiiydek qabul qilmoqda, ularda maqsadga zo'ravonliksiz yetishib bo'lmaydi degan tushunchalar shakllanmoqda.

-yoshlarda tinchlik madaniyatini shakllantirishda davlat va nodavlat tashkilotlari, jamoat birlashmalari, ta'lim sohasi xizmatchilari, yoshlar va ayollar tashkilotlari birgalikda, hamkorlikda ish olib borishlari lozim. Ushbu hamkorlikka xalqaro tashkilotlarni ham jalb qilish maqsadga muvofiqdir.

II - BOB. JAMIYATNI MODERNIZASIYA QILISH VA YANGILASH SHAROITIDA YOSHLARNING HUQUQIY MADANIYATINI YANADA OSHIRISH YO'LLARI VA MUAMMOLARI

2.1. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirish va shakllantirishning o'ziga xos tomonlari

Yoshlarga huquqiy madaniyatni shakllantirish, uni o'rganish jamiyatimizning kelajakdagi huquqiy xolatini qay darajada bilishni baxolash, tasavvur qilishga imkon yaratadi. Huquqiy madaniyat o'zbek millatining turmush tarzida, ananaviy madaniyatida, milliy dunyoqarashi va mafkurasida muhim o'rin tutadi. Yoshlarda huquqiy madaniyatni to'la qaror toptirishda milliy, manaviy, diniy-ahloqiy, davlat-huquqiy va tarixiy merosimizga, mafkuramiz g'oyalari tayanmoq kerak. O'zbek milliy mafkurasining tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat: 1-dan o'zbekchilik mustaqillik xis-tuyg'usi va istiqlolni to'la idrok etish; 2-dan, ko'p millatli O'zbekiston xalqining vatanparvarligi tashkil etadi. Uning negizini esa, milliy g'urur, o'zbek millatining asosiy fazilatlar va nixoyat buyuk ilmiy-madaniy meros tashkil etadi.¹

Milliy mafkura keng qamrovli dunyoqarashni shakllantirish va tarbiyalash omilidir. U hilma-hil va bazi tarqoq qarashlarni umumiy maqsad yo'lida yaqinlashtiradi va birlashtiradi. Yangi mafkura milliy ong, tuyg'uni huquqiy va siyosiy madaniyat bilan qo'shish muhim o'rin egallaydi. Chunki bu mafkura yoshlarning ongi, tafakkuri, qarash va tushunchalari, etiqodi, dunyoqarashi va bilim darajasi turlicha ekanligini etiborga oladi.

Shuning uchun talaba, yoshlarni tarbiyalashda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan o'zbek milliy qadriyatlari, analari, Markaziy Osiyo mutaffakirlari qarashlariga asoslamok kerak.

Islom dining asosi bo'lgan +uroni Karim va Xadisi sharif, Farobiy, Beruniy, Ibn Sino, Alisher Navoiy, Bobur, Naqshband, Axmad Yassaviy, Al-Buxoriy, At-Termiziy, marg'iloniy va boshqa allomalar asarlarida olg'a surilgan g'oyalarni

¹ Тожионов У. Саидов А. «Хуқуқий маданият назарияси» Т. 1-Т Ўз. Р. И. И.В. А кад.-1998.-17-18-бетлар.

insonparvarlik, xalollik, poklik, millatni sevish, vatan bilan g'ururlanish, mehnatsevarlik, xurfikrlik kabi g'oyalarni yoshlar ongiga singdirmoq lozim. Yoshlarning turli huquq sohasi meyorlarini, huquqiy prinsiplarini, davlat organlarini, shu jumladan huquqni muxofaza qilish organlarini tashkil etish tartibini va uningfaoliyatini bilishi yoshlarda huquqiy madaniyatning shakllantirishning zarur shartidir. O'zbekiston Respublikasining «Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi» aholining huquqiy madaniyatini shakllantirish bo'yicha davlat siyosatini muvoffaqiyatli amalga oshirish bir tomondan jamiyatning har bir azosi huquqiy bilimlarning muayyan darajasini o'zlashtirib olishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitni yaratishni, ikkinchi tomondan, turli ijtimoiy guruxlarning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olgan xolda huquqiy maorifni tabaqalashtirishni nazarda tutadi.

Bundan tashqari huquqiy madaniyatni tadqiq etishda jamoatning turli ijtimoiy guruxlarini o'ziga xos tomonlarini chuqur o'rgangan va etiborga olgan xolda ilmiy izlanishlar olib borish zarurligi ko'rsatib o'tilgan va uni rag'batlantirish nazarda tutilgan. Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri-obyektivlik va subyektivlik xususiyatiga egaligidir. Buning manosi shundaki, bir tomondan yoshlarning xoxish istagi bog'liq bo'lmagan xolda ro'y bersa, 2-tomondan esa, u har bir yoshning xatti-harakatlari, ularning intilishlari hamda faoliyat natijasiga bog'liq bo'ladi.

Yoshlarda huquqiy madaniyatning shakllanishidagi subyektivlikning mohiyati ularning huquqiy munosabatlarda va o'zgarishlarda qanday ishtirok etishi va ularga qanday munosabat bildirishdan qat'iy nazar, bu jarayon obyektiv xodisa sifatida ro'y beradi. Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllanishini to'xtatib qo'yish mumkin emasligining o'zi xam uning obyektiv xususiyatiga ega ekanligini ko'rsatadi.

Huquqiy madaniyatning obyektiv jarayon bo'lishi bilan birga, u subyektiv faoliyatning ham natijasi hisoblanadi. Har bir yosh jamiyatning, huquqiy munosabatlarning o'ziga xos subyektivi sifatida huquqiy voqyea-xodisalarga malum darajada tasir ko'rsatadi. Masalan, saylovlarda ovoz berish, bilm olish, mehnat

qilish huquqlaridan foydalanish, u yoki bu huquqiy munosabatlarda subyekt sifatida ishtirok etishi yoshlarning huquqiy madaniyatining shakllanishidagi subyektivlikni ifoda etadi.

Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllanishida o'ziga xos xususiyatlardan 2-: asta-sekinlik xususiyatidir. Yoshlarda huquqiy madaniyatning shakllanishi bir lahzada yoki juda qisqa davr ichida ro'y bermaydi.

Yoshlar ulg'ayib borgan sari, huquqiy voqeya xodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqish sabablarini va oqibatlarini asta-sekinlik bilan anglab beradi.

Yoshlar huquqiy munosabatlarda va jamiyat huquqiy xayotida ro'y berayotgan o'zgarishlarning mohiyatini ko'proq bilib borsa, o'zining bu munosabat va o'zgarishlardagi o'rni va ishtirokini ham shunchalik ko'p anglab boradi. Bundan tashqari huquqiy voqeya-xodisalar jamiyat taraqqiyotining alohida bir bosqichiga xos bo'lgan xususiyat emas, jamiyat rivojlanar ekan, qabul qilingan qonunlar, farmonlar o'z kuchini yo'qotib, yangilari ishlab chiqilishi mumkin. Bu uzluksiz jarayon yoshlar ongiga asta-sekinlik bilan tasir eta boradi. Davlat va jamiyatdagi rivojlanish bir joyda to'xtab qolmaganligi singari, yoshlarning huquqiy madaniyati ham bir hil darajada qotib qolmaydi, balki yangi huquqiy xayotdagi o'zgarishlar tasirida o'zgarib, rivojlanib boradi.

Eski huquqiy tasavvurlarni yangilari bilan almashib borish jarayoni, yoshlarning huquqiy madaniyatining, ongining o'zgarib borishini ifoda etadi. Keyingi yillarda qonunchiligimizda umumjaxon andazalarga mos keladigan o'zgarishlar yoshlarda eskicha tasavvurlardan voz kechishga olib keldi.

3-xususiyati yoshlarda huquqiy madaniyatning shakllanishida alohidalik hususiyatidir. Yoshlarda huquqiy madaniyatga xos bo'lgan belgilar bir vaqtda shakllanmaydi.

Yoshlarga xos bo'lgan shunday alohida hususiyatlar borki, ana shu xususiyat huquqiy madaniyat belgilarining har bir yoshda, jamiyatning alohida azosi sifatida alohida-alohida ro'y berishini ifoda qiladi. Shunga ko'ra bir yerda yashayotgan, yoki bir joyda talim olayotgan 2 yoshning huquqiy madaniyat darajasi 2 xil

bo'ladi. Buning manosi shundaki, huquqiy madaniyatning belgilari barcha yoshlarda oz yoki ko'p, u yoki bu darajada shakllanib boradi.

4-bir muhim hususiyati-umumiylik xususiyatidir. Huquqiy madaniyatning har bir belgisi yoshlarda jamiyatning bir azosi sifatida alohida-alohida ko'rinishda namoyon bo'lganligining o'zi ham yoshlar huquqiy madaniyatining shakllanishidagi umumiylik xususiyatining mohiyatini aks ettiradi. Bundan tashqari huquqiy madaniyatning ijtimoiy guruxlar faoliyatida namoyon bo'lishi ham huquqiy madaniyat shakllanishiga xos bo'lgan umumiylikni ifoda qiladi.

Masalan: ishchilar, ziyolilar, dehqonlar, talaba yoshlar va boshqa guruxlarning har birida huquqiy madaniyat darajasida bir muncha yaqinlik bo'ladiki, bu hol huquqiy madaniyat shakllanishiga xos bo'lgan umumiylikni ifoda qiladi. Chunki, umumiylik alohida bir shaxs tomonidan emas, balki barcha shaxslar faoliyati orqali namoyon bo'ladi.

Buning sababi shundaki, barcha talaba yoshlarning huquqiy onglilik darajasi deyarli o'zaro yaqin bo'ladi. Shuningdek, talabaning talim olish, turmush sharoitlari va mashg'ulot turlaridagi umumiy sharoitlar ularning huquqiy onglilik va madaniyatlilik darajasiga xam tasir etadi. Talaba yoshlar huquqiy madaniyatining yuqori darajasi bo'lishi huquqiy jarayonlar va huquqiy munosabatlarda faol ishtiroki, huquqiy savodxonligi va uning amaliy faoliyatidagi natijalariga qarab belgilash mumkin.

Shu jixatdan qaraganda talabalarning huquqiy madaniyati mezonlari quyidagi 3 turni tashkil etadi: 1-turi huquqiy madaniyatning yuqori darajaga erishilgan talabalar: 2-turga huquqiy madaniyati o'rtacha darajada bo'lgan talabalar va nixoyat 3-turga huquqiy madaniyati past darajada bo'lgan talabalar kiradi.

Yoshlar huquqiy madaniyatining yuqori darajada bo'lishi huquqiy jarayonlar va huquqiy munosabatlarda faol ishtiroki, huquqiy savodxonligi, qonunga itoatkorligi, hurmat bilan o'lchanadi.

Huquqiy madaniyati yuqori bo'lgan yoshlar qonunni hurmat qiladi, uni qonun himoya qilishini biladi, har bir qabul qilingan qonunning mohiyatini o'rganib chiqib, unga itoat etadi, insonga oliy qadriyat sifatida qaraydi, jamiyatning huquqiy

xayotida faol ishtirok etadi, huquqbuzarlarga nisbatan murosasizlik tuyg'usiga ega bo'ladi. Bunday yoshlar boshqalarga o'rnak bo'lishi bilan birga, ko'pchilikning ishonchi va xurmatiga ham sazovor bo'ladi.

Huquqiy madaniyati yuqori darajada bo'lgan yoshlar nafaqat huquqiy balki, ahloqiy, siyosiy madaniyatini ham namoyon eta oladilar. Huquqiy madaniyati o'rtacha darajada bo'lgan yoshlar huquqiy savodxonligi ham o'rtacha bo'ladi. O'zi egallagan huquqiy bilimlarni xayotga tadbiiq etishda extiyojdan kelib chiqqan xolda amalga oshiradilar. Huquqiy madaniyati past darajada bo'lgan yoshlarda boshqalarga nisbatan namuna bo'ladigan sifatlar kam bo'ladi, davlatning huquqiy xayotida loqaydlik, o'zgalar bilan qiziqmaslik, shuningdek, huquqbuzarlar, qonunbuzarlarga nisbatan befarq bo'ladilar. Bunday talabalarda huquqiy madaniyatlikka nisbatan huquqiy madaniyatsizlik ustunlik qiladi.

Boshqalarni qonunlarni mensimaslik, xaqoratlash singari xislatlar madaniyatsizlikning amaldagi ko'rinishi xisoblanadi. Huquqiy savodxonlik darajasi ham past bo'lib, qonunlarga itoatsizligi bilan ajralib turadi. Huquqiy madaniyati past bo'lgan talabalar ana shu turdagi kishilar guruxiga kiradilar.

Talabalar va yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda, alohida etibor berilishi lozim bo'lgan o'ziga xos shart-sharoitlar va xususiyatlari ham borki, unga talim berishda, albatta xisobga olish zarur.

Zero, yoshlarda huquqiy madaniyat turli yo'llar va shart-sharoitlar asosida shakllanadi: 1-dan, yoshlarning talimning turli sohalarida ishtirok etishlari bilan o'zlarining bilim darajalarini oshirib boradilar.

Ular turli fan sohasidagi bilimlar bilan birga huquqiy fanlar beradigan bilimlardan ham iborat bo'lib boradilar. Bilim olish 1997-yil 28-avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan qabul qilingan «Talim to'g'risidagi qonun» va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga» ko'ra bosqichma-bosqich amalga oshirilganligi uchun ham huquqiy bilimlar, talim jarayoning keyingi bosqichlarida keng tizimda o'rganiladi.

Huquqiy bilimlarni o'rganuvchilarning soni yildan-yilga oshib borgani sari, mamlakatimizda aholining huquqiy madaniyat darajasi ham shunchalik yuqori bo'ladi.

2-dan yoshlar jamiyatning huquqiy va siyosiy xayotida va huquqiy munosabatlarida bevosita ishtirok etishi bilan boshlanadi. har bir shaxs o'z tashabbusi bilan davlatning huquqiy va siyosiy munosabatlari bilan bog'liq bo'lgan huquqiy maruzalar, suhbatlar va yig'ilishlarda «Kamolot yoshlar ijtimoiy harakati» orqali amalga oshadi.

Bunday voqeya va xodisalar, o'zgarishlar shahs ongiga tasir etib, unda huquqiy madaniyatning shakllanishi uchun qulay shart-sharoitni vujudga keltiradi.

3-dan, yoshlar shuningdek, talabalarning malum bir aniq sohada bo'lg'usi mutaxassisligini etiborga olishimiz zarur. Ularda huquqiy madaniyatni shakllantirishda umumiy huquqiy asos bilimlarini berish bilan birga, iloji boricha o'z mutaxassisligiga taluqli bo'lgan huquqiy bilimlarni berishga qulay shart-sharoit va aniq asos bo'ladi. Masalan, noyuritik o'quv yurti xisoblangan moliya oliygohi bo'ladigan bo'lsa, ko'proq moliya huquqi, ho'jalik huquqi kabi sohalar bo'yicha chuqurroq bilim olishlariga etibor berish lozim bo'ladi.

4-dan talim tarbiya berish vosita va usullarini tanlashda ularning yosh psixologiyasiga ham etibor berish lozimdir.

5-dan Oliy o'quv yurtida talim olayotgan talaba yoshlarimizning aksariyati o'z uylaridan uzoqda viloyat va tumanlardan xatto boshqa davlatlardan kelishgan. Bu talabalar boshqa talim muassasalari va yoshlarimizdan farqli o'laroq o'z otanalari, oilalaridan uzoqda bo'ladilar.

Shu sababli talaba yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirayotganda ushbu sharoitlarni etiborga olish darkor.

6-dan, ommaviy axborot vositalari, hamda bosma nashrlar va ular ishining tahlil etilishi ham talabalarning huquqiy madaniyati va ongining shakllanishidagi muhim sharoit hisoblanadi. Bu vositalar va bosma nashrlar orqali berilayotgan huquqiy malumotlar, ahborotlar, ilmiy nazariy bilimlar yoshlarning ongi va bilimi oshishiga katta tasir ko'rsatadi.

Yuqoridagi fikrlardan quyidagi xulosalarni chiqarish mumkin. Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda o'ziga xos xususiyatlar mavjud bo'lib, ular obyektivlik va subyektivlik, asta-sekinlik, alohidalik hamda umumiylik xususiyatidir.

2.2. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirishda huquqiy tarbiya berishning shakllari va tizimi

Respublikamiz birinchi Prezidentining 1997 yil 29 avgustdagi O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining IX sessiyasida so'zlagan nutqi, O'zbekistonda barkamol avlodni tarbiyalashdasturini yaratishda poydevor bo'ldi. Nutqda aytilgan fikrlar asosida Respublikamizda «Talim to'g'risida»gi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Umumiy talim jamiyat rivojida zarur tayanch bo'lsa, huquqiy talim-tarbiya demokratik huquqiy davlatning poydevoridir. Chunki huquqiy talim va madaniyat har qanday demokratik mamlakatda xalqning erkin yashashi, farovon turmush kechirishi, hohish irodasini xech qanday to'siqlarsiz amalga oshirishda, ezgu maqsad va niyatlarni amalga oshirishda muhim kafolatdir.

Huquqiy talim tarbiyaning asosiy vazifasi barcha o'quv muassasalaridagi tinglovchilarga qonunchiligimizning birinchi, navbatda Konstitutsiyani chuqur o'rganish va hurmat ruhini shakllantirishdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan qaraganda hozirgi kunda huquqiy talimning ahamiyati muhimdir.

Huquqiy talim - tarbiya asosida o'z huquqlarini va burchlarini yaxshi bilgan jamiyat azolarigina ijtimoiy xayotning xamma sohalarida ongli ravishda mehnat qiladi va ularning yaratuvchanlik faoliyati ancha yuqori bo'ladi.

Fuqarolarning huquq va burchlarini yaxshi bilishdan faqat shaxslar manfaatdor bo'lmay, balki davlat xam manfaatdordir. Birinchi Prezidentimiz I.A.O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining VI sessiyasida: «Aholining huquqiy tarbiyasinitubdan yaxshilash, uning huquqiy madaniyat darajasini oshirish, huquqiy axborotning keng maydonini yaratish-huquqiy davlatning qaror topishida muhim yo'nalishidir», - deb takidlashlari xam shu boisdandir. Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda bir asosiy narsaga etibor berishimiz lozim.

Yani yoshlar o'z huquqiy madaniyatini yuksaltirishdan bevosita o'zlari manfaatdor ekanliklarini tushunib yetishlariga erishmoq kerak.

Yoshlarning o'zlari huquqiy bilimlarni o'zgartirishga qiziqishgandagina, biz olib borayotgan chora tadbirlar o'z natijasini berishi mumkin. Shu sababli xam huquqiy tarbiya berishda avvalo huquqiy bilimlarning, qonunlarning inson xayotidagi tutgan muhim o'rnini yoshlarga tushuntirib berishimiz lozim.

Huquqiy tarbiya-bu davlat muassasalari, jamoat tashkilotarida va mehnat jamoalarida mehnatkashlarni huquqiy bilimlari, huquqiy madaniyati va huquqiy ongini oshirishda o'zlarining subyektiv huquqlari va majburiyatlarini, ijtimoiy qadr-qimmatlarini anglab yetishlarida doimiy va maqsad sari yo'llangan faoliyatidan iboratdir.

Huquqiy tarbiya xozirgi zamon tarbiya tizimida yuridik fikrlash nuqtai-nazariyadan yuqori inqilobiy burilishni yasashi kerak. Huquqiy davlat qurish, yangilanish sharoitida huquqiy tarbiyaning nazariy va amaliy masalalari eskicha nuqtai-nazardan hal qilinishi mumkin emas va hal qilinmasligi kerak.

Bu sohada ishlab chiqilgan ko'pgina nazariyalar bo'layotgan jarayonlardan nafaqat orqada qolgan, balki xozirgi kunda jamoat xayotidagi yangi real o'zgarishlarni aks ettirishga xam ulgura olmayapti.

Huquqiy tarbiya murakkab va ko'p qirrali xodisadir uni bir yoqlama tariflash qiyin. Huquqiy tarbiya bu shaxsga nisbatan huquqiy ongni, huquqiy ko'rsatmalarni, qonunga itoatkor xulq-atvor ko'nikmalari va odatlarini shakllantiruvchi uyushgan, bir tizimli, aniq maqsadni ko'zlagan xoldagina tasir ko'rsatishidir.¹

Huquqshunos olim O. Karimova Huquqiy tarbiyaga quyidagicha tarif beradi, huquqiy tarbiya bu - tashkiliy ravishda muntazam olib boriladigan, aniq maqsadni ko'zlagan va shaxsga (guruh shaxslariga) tasir qila oladigan, ularda huquqiy ong, huquqiy bilim, qonunlarga rioya etish xislatlarini vujudga keltiradigan harakatdir.²

Yuqoridagi umumiy tariflardan kelib chiqqan xolda, talaba yoshlarning huquqiy tarbiyasi tushunchasiga tarif beradigan bo'lsak, yoshlarning huquqiy tarbiyasi-bo'lg'usi yosh mutaxasislarning huquqiy bilimlari, huquqiy ongi,

¹ Таджиханов У, Саидов А. Хукукий маданият назарияси Т. 2.-Т. Ўзбекистон Республикаси. ИИВ АКАД 1998 195 б

² Каримова. О. Хукукий тарбия методикаси. Т Низомий номидаги Т.Д.П. У.-2000.-5 б

huquqiy madaniyatini tahlil qilishga yo'naltirilgan oliy o'quv yurtlarining talim-tarbiya faoliyatini tashkil etadi, yoshlarning subyektiv huquqlari va majburiyatlarini, huquqiy ijtimoiy – insonparvarlik mohiyatini imkon darajada anglashlari, shuningdek tashabbuskorlik, huquqiy tarbiya faoliyatining masalalarini berish tushuniladi.

Shuni unutmash kerakki, huquqiy tarbiyani huquqiy talimdan yoki faqat huquqshunoslikni o'qitishdangina iborat emas. Oliygoxlarda huquqiy tarbiya tizimi va shakli talaba yoshlarning huquqiy tarbiyasiga har tomonlama yondashishdan kelib chiqadi. Huddi shu yerda huquqiy tarbiyaga elementar yondashishdan voz kechish zarurligini aytib o'tishimiz zarur. Zamonaviy huquqiy jamiyat, davlat, iqtisod, siyosat, manaviy-madaniy tarbiya va boshqa tizimlarni chuqur, har tomonlama amalda o'rganishni keskin xis qiladi. Talaba yoshlarni huquqiy madaniyatini shakllantirishda, huquqiy tarbiya berishda «Huquqshunoslik» xamda «Inson huquqlari» o'quv fanlarining o'qitilishi eng samarali usul bo'lib, huquqiy tarbiya berishda markaziy bo'g'in sifatida asosiy etibor qaratilgan.

«O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishiga¹ asosan 2001-2002 o'quv yilidan boshlab barcha talim muassasalarida, shu jumladan oliy o'quv yurtlarida ham «O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganish» maxsus o'quv kurslari o'qitiladi.

Xayotimizning asosiy qonuni bo'lmish O'zbekiston Konstitusiyasining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini, mano-mazmuni va mohiyatini o'rganish, yosh avlodning huquqiy ongi, tafakkuri va madaniyatini tarbiyalash hamda yuksaltirish maqsadida imzolangan ushbu farmon o'z vaqtida qabul qilingan xujjatdir.

Zero, Konstitusiya barcha sohada asosiy manba sifatida o'rganilishi va markaziy o'rinda turmog'i zarur. «Inson huquqlari» o'quv kursining oliygoxlarida o'qitilishi esa talabalarning huquqiy madaniyatini, umuminsoniy qadriyatlarga, inson huquqlariga bo'lgan xurmatini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

¹ Халқ сўзи.-2001 й 5-январ

Talabalarni qonunlarga, jamiyatning turmush qoidalariga hurmat bilan qarash, insonlarni va kishi shaxsini xurmat qilish ruxida tarbiyalash, har bir talabada insonning huquqiga, qadr-qimmatiga zarracha bo'lsada tajavuz qilishga yo'l qo'yib bermasligiga, qat'iy ishonch xosil qilish, fuqarolik faoliyatini va ahloq qoidalariga xilof ishlar xamda jinoiy harakatlarga keskin zarba berishga tayyor bo'lish ruhida tarbiyalash bu narsalarni o'qitish va o'rgatishning bevosita vazifasi bo'lib xisoblanadi.

Huquqiy xodisalar va tushunchalarni o'rganish yoshlarning demokratik va adolatli fuqarolik talimi to'g'risidagi tasavvurlarini kengaytiradi, ularni huquqiy fikrlashlarini rivojlantiradi, uning huquqiy madaniyatini har bir manaviy barkamol insonda bor bo'lgan muhim hislatlarni yuksaltiradi.

Oliy o'quv yurtlarida huquqiy talim samarasini malum manoda quyidagilar belgilaydi.

1-dan, o'quv tartiblariga kompleks yondashish; 2-dan, ijtimoiy fanlar asoslarini o'rganishda konkret bilimlarni mohirlik bilan ajrata bilish; 3-dan, mustaqilligimizning o'tish davri jarayonida jamiyatimizning barcha xayotiy tomonlarining kardinal huquqiy muammolarini amaliy masalalar bilan bog'liq xolda xal qilinishi. o'quv tartiblariga kompleks yondashishga zarur xozirgi kunda ikki asosiy talab qo'yiladi. 1-, yoshlarni avvalo ilmiy dunyoqarash, onglilik, yuksak axloq, vatanparvarlik va milliy qadriyat ruxida tarbiyalash.

Bu talab g'oyaviy, siyosiy, huquqiy, mehnat va ahloqiy tarbiyaning birligini taminlashni taqazo etadi. 2-, 1-talab bilan bog'liq bo'lib, yoshlarning ongini, ahloqiy qarashlarini va hatti-harakatlarini shakllantirishga boshqa omillarning birgalikda tasir etishini taminlashdan iboratdir.

Huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishni to'g'ri tushunish uchun, uning umumiy va mahsus tomonlarini to'g'ri va aniq asoslab olmoq kerak. Bunda:

- huquqiy tarbiyaning ijtimoiy ahamiyati;
- huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishni taminlovchi qoidalar;
- huquqiy madaniyat va huquqiy ongni shakllantiruvchi usul va shakllar;

-huquqiy tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishdagi asosiy faktlarga alohida etibor berish lozim bo'ladi.

O'quv jamoalarida huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishi quyidagilarni o'z ichiga oladi: huquqiy tarbiyaning mafkuraviy, siyosiy, mehnat va ahloqiy tarbiya bilan o'zaro aloqasi; yoshlarning turar joy va o'quv jamoasida huquqiy-tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan tadbirlarni rejalashtirish va o'tkazish; o'quv-tarbiyaviy jarayonini tashkil etishdahuquqiy tarbiyani amalga oshirish va huquqbuzarlikni oldini olish bo'yicha ishlarni talaba yoshlarni dam olish va yashash sharoitlarini yaxshilash orqali takomillashtirib bori; yoshlarda huquqiy ongini shakllantirishda ular o'rtasida namunaviy jamoat tartibi, otaliqqa olish, faolliklari uchun musobaqa va harakatlardan mohirona foydalanish; oilaning o'quv va mehnat jamoalarining huquqiy tarbiyaviy tasirini muvofiqlashtirib birgalikda faoliyat yuritish; huquqiy tarbiya jarayoni samaradorligini o'rganish, boyitish va ijobiy tajribalarni kengroq tarqatish xamda ko'zlangan tadbirlarni bajarilishi yuzasidan nazorat o'rnatish har qanday tarbiyaviy ish tarbiyalanuvchining o'zining shaxsiy ahloqiy ichki sharoitlari harakati bilan samaralidir.¹

Huquqiy o'z-o'zini tarbiyalash bu yosh insonlarning yuridik normalarga amal qilishda o'ziga bo'lgan talabchanlik, o'z burchlarini bajarib qolmay boshqalarga xam qonunni xurmat qilishda namuna bo'lib, turli ko'rinishdagi huquqbuzarliklarga nisbatan murosasozlikda faol bo'lishlikni o'zida sistemali ravishda shakllantirib va rivojlantirib borishdir. Huquqiy o'z-o'zini tarbiyalash odatda bosqichma-bosqich, asta-sekinlik bilan amalga oshib boradi.

Bunda yoshlarning, o'zlarini jamiyat taraqqiyotida teng huquqli va faol ishtirokchi ekanliklarini tushunib yetishlari muhim ahamiyatga egadir.

Buning uchun, yoshlar o'z faolliklarini namoyish etishlari va huquqiy bilimlarini oshirishlari uchun sharoitlar yaratib berish va qo'llab-quvvatlash lozimdir.

O'quv jamolarida huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishni amalga oshirish uchun ijtimoiy, siyosiy, tashkiliy va ilmiy metodik prinsiplarga amal qilgan xolda

¹ Рубинштейн С. Л. Принципы и пути развития психологии М. Наука, 1959-С 158.

rahbarlik qilish lozim. Demokratik prinsip bu asosiy ijtimoiy-siyosiy qoida bo'lib, u davlatchilik, huquq va qonunchilik masalalarini demokratik qadriyatlar orqali yoshlarga tushuntirilishni nazarda tutadi.

Yoshlarga huquqiy normalarning mazmunigina tushuntirib bermasdan, ularning umuminsoniy qadriyatlar uchun xizmat qilishi, jamiyat uchun foydaliligini, ularning jamiyat rivojlanishidagi o'rnini ko'rsatib o'tish lozim bo'ladi.

Huquqiy tarbiyaning xayot bilan bog'liq ravishda olib borishda prinsip yoshlarni huquqiy amaliyotiga kirib borishiga, xayotimizda uchrab turgan huquqiy voqeya-xodisalarga yoshlarning o'zlarini jalb etish, masalan, qonuniy xujjatlar loyihalarini muhokama qilish, saylov ishlarini olib borish kabi tadbirlar, ularda qonunga bo'lgan xurmatini tarbiyalashga yordam beradi.

Tashkiliy prinsiplar ichida esa asosiy o'rinni rejalashtirish egallaydi va u esa o'quv jamoasida qonunilikni ahvoli va ahloqiy ruhiy ko'rsatkichlarini xamda talablarning huquqiy ongi darajasini har tomonlama o'rganishni nazarda tutadi. Bu esa, kelajakdagi mafkuraviy ishlarni aniqlab olishga, yoshlar huquqiy ongiga tasir ko'rsatishning samarali usullaridan foydalanishga yordam beradi.

Ushbu rejalarini tuzib chiqish uchun pedagoglar, jamoat tashkilotlari, huquqni ximoya qiluvchi organlar xodimlaridan iborat bo'lgan mahsus guruxlar tuziladi va bir necha bir-biriga bog'liq bo'lgan bosqichlarni bosib o'tadi:

A) tashkiliy;

B) tahliliy;

V) tayyorlov (rejani tuzish, muddatini belgilash, javobgarlik, tadbirni amalga oshirishning nazorat shakllari);

G) jamoada muhokama qilish va uni tasdiqlash;

Bu ishlab chiqilgan rejalar huquqiy tarbiya ishlarining xamma yo'nalishlarini o'z ichiga olgan bo'lishi kerak: huquqiy targ'ibot (og'zaki yoki ko'rgazmali); huquqiy bilimlarni tarqatish (targ'ibot); huquqiy talim; talabalarni ijtimoiy-

huquqiy amaliyotga jalb etish; huquqbuzarlikni oldini olish; huquqiy tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish bo'yicha tadbirlar tizimini nazarda tutadi.

Shuningdek, ko'zda tutilgan ishlarning amalga oshirilishini, bajarilishi nazorat qilish ham tashkiliy ishlarning muhim prinsiplaridan biridir. Huquqiy tarbiya tadbirlarning davriy va istiqboldagi nazorati mavjud bo'lib, davriy nazoratda tadbirlar qanday bajarilganligi, qo'yilgan kamchiliklar tahlil qilinadi. Huquqiy tarbiyada kompleks yondashuvni amalga oshirishda ilmiy uslubiy qoidalar muhim ahamiyatga ega.

Shulardan biri o'quv jamoasida qonuniylik ahvolini hisobi va talabalar huquqiy ongining qay darajadagidir. Bu shuni bildiradiki:

A) huquqbuzarlikni tarqalganligi va harakterini o'rganish (sifati va soni jihatidan);

B) huquqbuzarlikning sodir etishning sababi va sharoitlarini tahlil qilish;

V) huquqbuzarliklarni va ularni sodir etuvchilarning aniq xisobini yuritish;

G) yoshlar huquqiy ongidagi kamchiliklarni nima sababdan paydo bo'layotganligi va ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish.

Huquqiy madaniyatning darajasiga qarab 3-turga ajratiladi: oddiy, ilmiy, kasbiy.¹ Shundan kelib chiqib ularni qay darajada bo'lishini aniqlash mumkin. Huquqiy tarbiyaga kompleks yo'nalishi hamma narsaga va sohaga birdan yopishib olish degani emas.

Shuning uchun bu yerda defferensial qoidagi ham amal qilish lozim bo'ladi. Defferensial yondashuv o'z ichiga quyidagilarni oladi:

Xar bir jamoasining ijtimoiy-siyosiy va boshqa o'ziga xos tomonlarini xisobi, yani mutaxassisligi, yosh xususiyatlari, ahloqiy, ruhiy muhiti, umumiy savodxonlik darajasi;

Guruxiy va individual huquqiy ongga mafkuraviy tasir ko'rsatish shakllarini nazarga olish. Umuman bu yondashuvda har bir shaxs aniq bir ijtimoiy-huquqiy tavsifga ega ekanligini yoddan chiqarmaslik kerak.

Uni bir-biriga bog'liq bo'lgan tarkibiy qismlar tashkil etadi:

¹ Ўз Миллий энциклопедияси. Д-М илмий нашриёти. Тошкент 11-қисм 2005 й

- 1) shaxsning huquqiy maqomi;
- 2) huquqiy ongi;
- 3) huquqiy hulq-atvori

Huquqiy maqom bir tomondan shaxsning huquq va erkinliklarini, boshqa tomondan, yuridik majburiyatlar va javobgarlikni o'z ichiga oladi. Shaxsga bo'lgan xurmat va talabning birligi qoidasi esa fuqarolarning konstitusiyaviy maqomidan, yani uning jamiyat va davlat oldida huquqlari va burchlaridan kelib chiqadi.¹

Huquq normalarining samaradorligi tushunchasini tadqiq qilar ekan U. Tojixanov, huquq samaradorligini muayyan nizomlarini va ko'rsatkichlari mavjudligi, har bir tarmoq, tuzilma, huquq normasi, o'zining qo'shimcha xususiyatlariga ega ekanligini mavjudlaydi² va ushbu fikr asosida konstitusiyaviy normalarni amalga oshirishning samaradorligi tushunchasi, uning nizomlari va ko'rsatkichlarini ko'rsatib beradi.

Huquqiy tarbiyada samaradorlik tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, uni ijtimoiy mohiyatidan kelib chiqib quyidagicha asoslash mumkin. Yoshlarning huquqiy tarbiyasining samaradorligi deganda, mavjud tarbiya vositalaridan unumli foydalangan holda, optimal muddatda va eng kam manaviy, moddiy va tashkiliy harajatlar bilan yoshlarning huquqiy bilimlarini egallashlarini, ularning etiqodi, asoslari va amaliy harakati ko'rsatmalari jamiyat talablari bilan muvofiqlashganligi tushuniladi.

Vaholanki, huquqiy tarbiya o'zining provard natijasi bilan huquqiy bilimlarni oshirishi va qonunlarni izchil bajarish kerakligi etiqodini shunday jamiyat voqyealigidan izlash kerak bo'lar ekan, ular huquqiy bilimlar darajasini, qonun buzilishiga maqsad qilmasligini anglatadi.

Huquqiy tarbiya samaradorligini oshirishning yana bir muhim tomoni shundaki, tarbiyachining o'zlari zarur xajmdagi huquqiy bilimlar bilan qurollangan

¹ Ўзбекистон Республикаси Конституцияси-Т. «Ўзбекистон»Н. М. И. У 2008 й

² Тожионов У. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси амалда Т. Ўзбекистон Республикаси И. И. В Ахад 1996й 36-73 б

bo'lishi va yoshlarda huquqiy ongni shakllantirish, ularni huquqiy madaniyatini oshirish uslubiyatini egallashi lozim.

Huquqiy onghuquqiy mafkura va huquqiy psixologiyadan tashkil topgan. Huquqiy mafkura- har xil huquqiy xodisalar xaqidagi nuqtai-nazar, tushuncha, g'oya va qarashlarning ilmiy umumlashtirilgan tizimidan iborat. Huquqiy psixologiya-huquqiy xodisalarni xissiyot bilan anglashdir.¹

Yoshlar huquqni bilsa, tasavvur qilsayu, ammo huquqiy ko'rsatmalarni ijro etilishida passiv munosabatda bo'lsa, bu huquqiy ongni to'laqonli shakllanmaganligini yaqqol ko'rsatadi.²

Huquqiy tarbiya quyidagilarni o'z ichiga oladi:

A) barcha huquqlar va ularning ko'rsatmalari mazmunini o'rganish(intelektual tomoni).

B) huquqning zarurligi, adolatliligi, xamma uchun tengligi, foydalanishga bo'lgan ishonchni shakllantirish (tarbiyaning baxolash tomoni)

V) tarbiyalanuvchilarda huquqiy faollikni, huquqiy meyorlarga rioya etishni, huquqbuzarliklarga qarshi murosasizligini shakllantirish (irodaviy elementi).

O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I. A. Karimov: «Bolalar bilan maktabdan tashqari ishlarni tashkil qilinsa, kishilarda, eng avvalo, yosh avlodda yuqori madaniyat va malumotni, mehr-oqibat va xalollikni, ahloqiy poklikni shakllantirishi lozim bo'lgan ijtimoiy madaniy muassasalar, kutubxonalar, teatrlar, muzeylar, ko'rgazma zallari va boshqalarning moddiy bazasini mustaxkamlash va ularni rivojlantirishga alohida etibor berish zarur».³

Umumiy talim jamiyat rivojida zarur tayanch bo'lsa, huquqiy talim-tarbiya demokratik huquqiy davlatning poydevoridir.

¹ Ўз Миллий энциклопедияси. Д-М илмий нашриёти. Тошкент 11-кисм

² Тожионов У, Саидов А. Хукукий маданият назарияси Т2 Ўзбекистон Республикаси ИИВ Ахад 1998 й 196 б.

³ И. Каримов. «Буюк келажак сари» Ўзбекистон иқтисодий-ислохотларни чуқурлаштириш йўлида. Т. Ўзбекистон 1998-408-409 бетлар.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, quyidagi xulosaga keldik. Umumtalim, kasb-xunar kollejlarda, oliy o'quv yurtlarida huquqiy tarbiya berishda «Huquqshunoslik», «Konstitusiyaviy huquq» va «Inson huquqlari» kurslarini o'qitilishi eng samarali usul ekanligini etiborga olgan xolda, ushbu kurslarga ajratilgan dars soatlarini ko'paytirish va unda mutaxassislikni etiborga olish lozim. Shuningdek, huquqiy tarbiyaga kompleks yondashishida differensial qoidaga amal qilishni nazardan qochirmaslik kerak.

Bundan tashqari huquqiy tarbiya samaradorligini oshirish yo'llaridan keng foydalangan xolda samaradorlik darajasini o'lchash va tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

2.3. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirishda oila va jamoatchilikning roli

Jamiyat hayot ko'rinishini universal shakli bo'lsa, oila uning yacheykasidir. Oila umumiy, maxsus va ijtimoiy qonunlarga muvofiq rivojlanadi, shu bilan birga u jamiyatning barcha qarama qarshililarini o'zida aks ettiruvchi, ayni chog'da o'z ichki ziddiyatlari, tabiiy ichki taraqqiyot manbalariga ham ega bo'lgan nisbatan mustaqil ijtimoiy institutdir. Jamiyatda va oilada yuz beradigan o'zgarishlar o'zaro bir-biriga bog'liq. Bugungi kunda siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, ruhiy o'zgarishlar yoshlarda oila va oilaviy munosabatlarga nisbatan yaxshi ijobiy munosabatlar shakllanish uchun zarur imkoniyatlarni yaratdi. Shu sababli oila faqat aholi sonini to'ldirish vazifasini bajaribgina qolmay, shaxsning o'z-o'zini namoyon etuvchi, ijtimoiy ahamiyatga molik fazilat va xislatlarni egallash uchun, ijtimoiy madaniyatni shakllantirish uchun qulay muhit hisoblanadi.

Respublikamizda 1998 yil «Oila yili» deb e'lon qilinishi, barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining oilaning ijtimoiy-iqtisodiy muammolarini hal etishga jalb etdi. 1998 yil fevral oyida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori bilan «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazi tashkil etildi.

Oila yoshlarga huquqiy tarbiya berishda va ta'lim tizimining boshlang'ich nuqtasi hisoblanadi. Oiladagi muhit farzandlar va ota-onalar o'rtasidagi, o'zaro munosabat, shakllangan tarbiya tizimi bolalarda huquqga bo'lgan dastlabki qarashlarni shakllantirishda muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Xalqimizda dono naql bor: «+ush uyasida ko'rganini qiladi». Agarda ota-onalarning o'zlari hayotimizda bo'layotgan o'zgarishlarning huquqiy tomonlaridan bexabar bo'lsa, xizmat joylarida, ko'cha-kuyda qilgan huquqbuzarliklarini hech narsa bo'lmagandek, farzandlar oldida muhokama qilib o'tishsa, bu yoshlar tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yoshlarning huquqiy tarbiyasida oila rolining muhimligi, boshqa huquqiy ta'lim tizimidagi o'quv maskanlari kabi qonun bilan belgilangan hodisa emas, u o'zbekona tarbiyaga xos ma'naviy axloqiy qadriyatlari bilan belgilanadi.

Yoshlarni avvalo oila tarbiyalaydi. Oilada muhit o'zaro hurmat, oliyjanoblik, halollik asosiga qurilgan bo'lsa, oila boshliqlari o'z vazifalariga sidqidildan qarasarlar jamiyatning bunday yacheykasidan yaxshi fuqarolar yetishib chiqadi. Shuning uchun ham oilani davlatning asosiy deydilar. Sharq uyg'onish davrining buyuk mutafakkiri, qomusiy bilim sohibi Abu Ali ibn Sino o'zining «Risolatu tadbiri manzil» asarida ota-ona zimmaiga o'ta murakkab va hayotiy vazifalarni qo'yadi. Agar oila boshlig'i tajribasizlik, no'noqlik qilsa u oila a'zolarini yaxshi tarbiyalay olmaydi va oqibatda yomon natija kelib chiqishi mumkin. «oilada yomon tarbiya deb uqtiradi olim,- faqat shu oilaning o'zigina salbiy ta'sir qilib qolmasdan, balki atrofdagi boshqa oilalarga ham salbiy ta'sir qilishi mumkin»¹. Ibn Sino ko'rsatadiki, sharoitning qanday bo'lishidan qat'iy nazar, bola tarbiyasi ota-onalarning asosiy burchi va vazifasidir. Ota-ona davlat boshlig'imi yoki jamiyatning oddiy fuqarosimi, unisidan qat'iy nazar, bola tarbiyasi masalasida ularga bir xil talab qo'yiladi. Davlat boshliqlari va boshqa katta mansabdor kishilar ham oila tarbiyasi masalasida boshqalarga o'rnak ko'rsatishi lozim. Shuning uchun ham Ibn Sino davlat boshlig'i va mansabdor shaxslarni eng yaxshi fazilatlarga ega bo'lishni talab qiladi. Tarbiyaning barcha yo'nalishlarida bo'lgani kabi huquqiy tarbiyada ham muntazamlilik, vorisiylik bo'lishi darkor. Huquqiy tarbiyani yoshlikdan olib borish darkor, chunki yoshlik kishining dunyoqarashi, o'z-o'zini anglashi va qadriyatlarini tushunishi, ahloqiy siyosiy-huquqiy va boshqa ideallarga mustaqil baho berish qobiliyati tez shakllanib borishi bilan harakterlanadi. Shuning uchun ham oilada o'quv yurtlarida, jamoat tashkilotlarida mehnat jamoalarida olib boriladigan tarbiyaviy ishlar ommaviy axborot vositalarining diqqat-e'tibori o'sib kelayotgan yosh avlodda huquqiy madaniyatni shakllantirishga qaratilmog'i kerak. Bolalar bog'cha yoshidan boshlab tartibni, turmug qoidalarini hurmat qiladigan bo'lishlariga erishish darkor. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganlaridek- oilada, maktabda, mehnat jamoasida, mahallada olib boriladigan axloqiy tarbiya jamoatchilik fikrining kuchi, ommaviy axborot vositalari, ruhoniylarning obro'-e'tibori hamma-hammasi odamlarimizda qonun buzilishi

¹ Ирсов А. Ибн Синонинг фалсафий рисоалари. Тошкент, Ўзбекистон. 1963 йил 20-б.

bilan bog'liq har qanday hatti-harakatlarga nisbatan barqaror qarshilikni shakllantirishga qaratilmog'i lozim¹. Buyuk tafakkur mutafakkir Abu Nasr Farobiy aytganidek, har kimki ilm-hikmatni desa, uni yoshligidan boshlasin, sog'-salomatligini yaxshi axloq va odobli bo'lsin, so'zining uddasidan chiqsin, yomon ishlardan saqlansin, hiyonat, makr va hiyladan uzoq bo'lsin, diyonatli bo'lsin va barcha qonun qoidalarni bilsin, bilimdon va notiq bo'lsin, ilmli va dono kishilarni hurmat qilsin, ilm va ahli ilmdan mol-dunyosini ayamasin, barcha real moddiy narsalar to'g'risida bilimni egallasin¹.

Ma'naviy barkamol insonni tarbiyalashda oilaning tutgan o'rni benihoya kattadir. Aslida oila jamiyatning bir tarkibiy qismi. Jamiyatda ro'y berayotgan hamma jarayonlar oilaga, kishilarga turmush tarziga bevosita ta'sir qilar ekan, shuningdek oiladagi munosabatlar ham jamiyatga u yoki bu sohada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Oilalarda saqlanib qolgan urf-odatlar an'analar tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi. Ma'lumki, musulmon olamida yoshlarni tarbiyalab, jamiyatda o'rnini topishda oilaning o'rniga azaldan alohida e'tibor berilib kelingan. Oila sharoit qonuniga bo'ysungan holda, jamiyatning talabini ham bajarib borishi zarur. Inson ham oilada jamiyat talablariga mos holda tarbiyalanib boradi. Mana shunga o'xshash sharqona madaniyatning bizning oilamizda saqlanib qolganligi yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyatga egadir. Huquqiy davlatni barpo etishda oilaning tutgan o'rni ma'lumdirki, bu barcha fuqarolarimizga o'z oilasini mustahkamlash, uning har bir a'zolarini, shuningdek yoshlarimizni davlatimizga sodiq qilib jamiyatimiz uchun sidqidildan xizmat etuvchi huquqiy madaniyatli jamiyat a'zosi qilib yetkazishimizni taqozo etadi.

Har bir jamiyatning negizini uning fuqarolari, oilasi tashkil etadi va shu har bir fuqaroning tutgan o'rni bilan davlatning qudrati kelib chiqadi. O'sib kelayotgan avlodning yetakligi ham, inqirozi ham oiladan boshlanadi. Oilada olingan tarbiya va bilim o'rnini hyech bir narsa bosh bo'la olmaydi. Oilada shaxs huquqiy madaniyatini shakllantirish bolaning yoshligidan boshlanadi. Shaxs huquqi

¹ Каримов И.А. Ўз. XXI аср бўсаҗида хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. Т, 1997 йил 94-б.

¹ Абу Наср Фаробий. Фозил одамлар шаҳри. Т, 1993 йил 182-бет.

madaniyatni shakllantirida oiladagi tartib intizomga bolaing befarq bo'lmashligini ta'minlash lozim. Shuningdek «Fuqarolar o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risidagi qonunning 13-moddasi 11-xatboshida «Voyaga yetmaganlarning huquqlarini himoya qilish bo'yicha jamoatchilik ishlarini tashkil etadi, ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalar haqidagi ma'lumotlarga vasiylik va homiylik organlariga taqdim etadi, bunday bolalarni tegishli davlat muassasasiga joylashtirishga ko'maklashadi.

Farzandlarning ongi, bilimi, huquqiy madaniyati ayniqsa talabalik davrida alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki bu paytda u turli toifa do'stlar orttiradi, shu paytgacha unga uqtirilgan, aytilgan narsalarga tanqiqiy qaray boshlaydi va shunga intiladi. Shaxsning ijtimoiylashganlik belgisi uning doimiy bilimga chanqoqligi dunyoqarashi keng qonun-qoidani, tartib intizomni yaxshi bilib, ularga amal qilishidadir. Huquqiy bilimi yuksak insonlardan tashkil topgan oiladan jinoyatchilar, qonunbuzarlar chiqishi amri mahol. Respublika xalq ta'limi vazirligi, Toshkent davla +ori Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy-tadqiqot instituti, Toshkent shahar xalq ta'limi bosh boshqarmasi o'zaro hamkorlikda «O'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligi»¹ Konsepsiyasini ishlab chiqqan. Shunisi qiziqki, nima uchundir konsepsiyasini hayotga tadbiiq etuvchilar faqat pedagoglardan iborat. Unda 7 ta bo'lib mavjud bo'lib, faqat «o'quvchilarni tarbiyalashda oila, mahalla, maktab hamkorligini oshirish mexanizmi» nomli bo'limdagina huquqni himoya qiluvchi organ xodimlariga tegishli fikrlar bayon qilingan. Biz istardikki, shunday konsepsiya faqatgina maktab o'quvchilari uchungina emas balki talabalar uchun ham ishlab chiqilib va unga huquq tartibot organlari xodimlarining vazifalari va hamkorligi ham kiritilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi. Fuqarolar faoligini oshirish fuqarolik jamiyatining eng muhim talabidir. Bu haqda birinchi Prezidentimiz O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 12-sessiyasida so'zlagan nutqida shunday degan edi. «Jamoat va nodavlat tuzilmalari hayot taqozosi bilan davr talabiga ko'ra tashkil etilishi kerak. Hokimiyatning mahalliy va markaziy boshqaruv organlari esa bu

¹ «Ўқувчиларни тарбиялашда оила, маҳалла, мактаб ҳамкорлиги» Концепцияси. Т.: Ўқитувчи 16-б

jarayonga to'siq bo'lmasliklari, aksincha bu yangi va demokratik va jamoat tuzilmarini tashkil etishini rag'batlantirishlari lozim. Toki odamlarimiz ijtimoiy-siyosiy hayotda bunyodkorlik ishlarida, fuqarolik jamiyatini belgilovchi qadriyatlarni shakllantirishda ko'proq va faolroq qatnashsinlar».

Demokratik institutlarni rivojlantirishdan bosh maqsad ko'pchilikni mumkin qadar jamiyat qurilishiga jalb etish, ularni o'z taqdirlarini, o'z kelajaklarini to'laqonli egalarini aylantirishdan iboratdir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o'rganish ishini yaxshilash haqida»gi 1997 yil 25 iyundagi PF-1791-sonli Farmoniga muvofiq, aholining huquqiy bilimi va ongini yuksaltirish, jamiyat a'zolarini huquqiy faolligini oshirish, islohotlarni yangi mazmun bilan boyitish yuzasidan olib borilayotgan ishlar davlat siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri etib belgilanganligini inobatga olib «Huquqiy ma'rifat targ'ibot markazini tashkil qilish va huquqiy adabiyotlarni aholiga yetkazib berishni yo'lga qo'yish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga¹ ko'ra Toshkent davlat yuridik instituti huzurida huquqiy ma'rifat targ'iboti markazi va +oraqalpog'iston Respublikasi Adliya Vazirligi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari adliya boshqarmalari huzurida uning mintaqaviy bo'limlari tashkil etildi va Nizomi tasdiqlandi.

Unga ko'ra huquqiy targ'ibot Markaziy oldiga ko'plab vazifalar yuklandi, shulardan biri aholining huquqiy madaniyati va saviyasini oshirishga qaratilgan tashkiliy-tashviqot ishlarda jamoat birlashmalari, huquqni muhofaza qiluvchi idoralar va ilmiy muassasalar bilan hamkorlik qilish, Respublika «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi, Kasaba uyushmalari, xotin-qizlar qo'mitasi, «Mahalla» jamg'armasi, «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati va boshqa jamoat birlashmalariga aholining huquqiy bilimlarini oshirish yuzasidan aniq maqsadga yo'naltirilgan targ'ibot va tashviqot ishlarini amalga oshirish tavsiya etilgan.

¹ Қаранг: Халқ сўзи, 1997 йил 23 июль

Fuqarolik jamiyati sharoitida yoshlar huquqiy madaniyatini yuksaltirish nafaqat davlat organlari zimmasiga mas'uliyatli vazifa yuklabgina qolmay, balki jamoat va boshqa nodavlat tuzilmalarining faollik darajasiga ham bog'liqdir. Yoshlarning nodavlat tuzilmalarida faol ishtirokini ta'minlash o'z navbatida ularning huquqiy madaniyati darajasini ham muttasil oshirib borishni zaruriyat qilib qo'yadi. Ayniqsa, yuridik faoliyatning turli sohalari bo'yicha nodavlat tashkilotlariga birlashgan holda yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirilsa e'tibor qaratishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirishda kasaba uyushmalari, yoshlar va xotin-qizlar tashkilotlari muhim o'rin tutadi. Ularning zimmasiga huquqiy ta'lim va huquqiy tarbiyaning turli shakllaridan yoshlarning yanada samarali foydalanish, ijtimoiy-siyosiy faolligini kuchaytirishga katta hissa qo'shish vazifalari yuklanadi. Fuqarolik jamiyatini shakllantirish jarayonida huquqiy tarbiyaning umumiyliigi va huquqiy axborotning hamma uchun ochiqligi prinsipini ro'yobga chiqarishda fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari, shu jumladan mahalla institutlarning mavqeyi ham beqiyosdir. Shu sababli aholi istiqomat qilayotgan mahallalarda yoshlarning huquqiy madaniyatni oshirish yuzasidan keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish kutilgan natija berishi shubhasiz. Mahallalarda yangi qabul qilinayotgan qonun hujjatlari yuzasidan keng ma'nodagi tushuntirishlarni olib borish, suhbat, ma'ruza mashg'ulotlarini o'tkazish yoshlarning huquqiy savodxonligini oshirishga katta yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasining «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonuniga¹ binoan o'zini-o'zi boshqarish organlari davlat organlariga ko'maklashishi bilan birga o'zlari ham mustaqil ravishda ba'zi davlat organlariga taaluqli vazifalarni bajaradi. Jumladan yer munosabatlarini tartibga solishda, notarial va fuqarolik holati aktlarini qayd qilishda ba'zi vazifalarni bajaradi. Shu sababli o'z valyutalarini amalga oshirishda yurist mutaxassislarining ishtirokining yanada kuchaytirish huquqiy madaniyat samaradorligini oshirishga keng

¹ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси, 1999 № 5. 110

imkoniyatlar yaratib beradi. Mamlakatimizda nodavlat va jamoat tashkilotlariga e'tibor kafolat kundan-kunga oshib bormoqda.

Bunga 1-chaqiri- O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining birinchi sessiyasida ham e'tibor qaratildi. Unda birinchi Prezidentimiz shunday dedilar «Odamlarning siyosiy ongi, siyosiy madaniti, siyosiy faolligi yuksalib borgan sari, davlat vazifalarini nodavlat tuzilmalari va fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o'tkazib borishi zarur. Bu borada o'zini-o'zi boshqaradigan idoralarning mahallalarning nufuzini a mavqeyini oshirish ularga ko'proq huquqlar berish katta ahamiyat kasb etadi»¹.

Mahalla har bir oiladagi ma'naviy axloqiy muhit, farzandlar tarbiyasiga sezilarli ta'sir o'tkazib kelgan mustaqillikka erishilgandan so'ng mahalla demokratik davlatning eng muhim bo'g'inlaridan biri sifatida rasmiy maqomga ega bo'ldi, hokimiyatni boshqaruvchi quyi organiga aylandi. Huquqshunos olib Z.Isломov mahallaning jamiyatda tutgan o'rnini quyidagicha baholaydi: «Mahallaning ta'lim-tarbiya maktabi hayot dorilfununi sifatida ahamiyati shu qadar kattaki, uning bu boradagi o'rni va rolini aniq va mukammal bayon etish, mohiyatini to'la yoritish hyech ham mumkin emas»².

Insonning butun umri o'tadigan mahallaning xususiyati shundaki, unda yashovchi har bir oila, shaxs shu ahli jamoa ko'z o'ngida shakllanadi. Mahalla yoshlari tarbiyasi mahalla faoliyati yo'nalishlari bilan uzviy bog'liq bo'lgan jarayondir. Aholiga eng yaqin bo'lgan hokimiyat bo'g'ini bo'lgan mahalla yoshlar o'rtasida katta tarbiya o'chog'i, ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lmog'i lozim.

Huquqiy tarbiyaning unsurlari jumlasiga muayyan ta'sir ko'rsatish vositalari ham kiradi¹. Hozirdi davrda huquqiy madaniyatni shakllantirishda og'zaki, ko'rgazmali va ilg'or texnik vositalardan foydalanish ham samarali bo'lmoqda. Bunda radio, televideniye va ko'chalardagi turli tuman reklamalarning o'ziga xos o'rni bor. Bu borada ommaviy axborot vositalarining o'rni va roli ham muhimdir.

¹ Каримов И.А. Озод ва обод Ватан, эркин ва фаровон ҳаёт пировард мақсадимиздир. Т.: Ўзбекистон 2000 й. Б-25

² Исломов З. Давлат ва ҳуқуқ умумназарий масалалари. Тошкент. Адолат 2000 й. 39-б.

¹ Тожиханов У. Ўзбекистонда мустақил давлатчиликнинг ҳуқуқий-маънавий муаммолари. Т.: 1996 й. 153-154 б.

Uning imkoniyati juda katta. Shuning uchun ham ommaviy axborot vositalariga huquqiy bilimlarni yoshlarga tushunarli va ishonarli tarzda yetkazib berishdek turli vazifa yuklangan. Huquqiy axborotning mazmunini tahlil qilish undan keyingi yillarda yuz bergan sifat siljishlaridan dalolat beradi. Uning g'oyaviy-siyosiy darajasi oshdi, materiallar xilma-xil va qiziqarli bo'lib qoldi, huquqiy targ'ibot ancha rejali va muntazam tus oldi. shu bilan bir qatorda kamchiliklar ham bor, ya'ni huquqiy targ'ibotda biryoqlamalik, jinoyat-huquqiy va ma'muriy huquqiy me'yorlarning qo'llanilishini tasvirlash ko'payib ketganligi o'rinli emas¹.

Hozirgi paytda qabul qilingan qonunlar va qonun hujjatlari ijrosi ustidan jamoat nazoratini, davlat hamda mansabdor shaxslarning faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradigan mexanizm sifatida ommaviy-axborot vositalarining mavqeini oshirish lozim. Ommaviy-axborot vositalari jamiyatimizning demokratik qadriyatlarini va tushunchalarini himoya qilish odamlarning siyosiy, huquqiy va iqtisodiy ongini shakllantirish bo'yicha faol ish olib borishlari lozim².

Fikrimizni xulosalar ekanmiz yoshlarda huquqiy madaniyatni oshirishda oilaning, mahallaning, ommaviy axborot vositalarining, davlat va nodavlat jamoat tashkilotlarining o'rni beqiyosligini ko'rdik. Ammo ular o'zlarining tarbiyaviy sohadagi vazifalariga ma'suliyat bilan qarashmayapti.

¹ Тожиҳанов У, Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. Т. Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси 1998 й. 168-б

² И.А.Каримов. Ўзбекистон XXI асрга интилмоқда. Т.: Ўзбекистон 1999 й. 30-31 б.

2.4 Jamiyatni modernizasiya qilish va yangilash sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirishdagi muammolar.

Jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etish qaysi sohalarni qamrab olgan? – degan savol bilan xuddi shu sharoitda yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish yo'llari va muammolarini birma – bir asosli ravishda ko'rsatib o'tishni lozim topdik. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qonunchilik palatasi va Senatining qsho'ma majlisidagi 2005 yil 28 yanvarda so'zlagan ma'ruzasida erishilgan yutuqlar, yo'l qo'yilgan kamchiliklar va kelajakda o'z oldimizga qo'ygan ko'plab ustivor vazifa va yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratib o'tdilar. Bizning uzoq muddatli va strategik vazifamiz avvalgicha qoladi – bu demokratik davlat, fuqarolik jamiyatini qurish jarayonlari va bozor islohotlarini yanada chuqurlashtirish, odamlar ongida demokratik qadriyatlarni mustahkamlash yo'lidan og'ishmay, izchil va qat'iyat bilan borishdir. Biz bugun hayotimizni isloh qilish va yangilash haqida gapirar ekanmiz, o'z oldimizga quyidagi ustivor vazifa va yo'nalishga to'xtalish lozim. 1. Davlat qurilishi va boshqaruvi sohasidagi eng muhim vazifa bu qonunchilik hokimiyati bo'lmish mamlakat parlamentining roli va ta'sirini kuchaytirish, hokimiyatning qonunchilik, ijro va sud tarmoqlari o'rtasida yanada mutanosib va barqaror muvozanatga erishishdan iborat. birinchi Prezidentimiz vakolatlarining bir qismini Parlamentning yuqori palatsi – senatga va hukumatga o'tkazish, professional, doimiy asosda ishlaydigan quyi-qonunchilik palatasini shakllantirish, uning vakolat va huquqlarini kengaytirish; Bosh vazir va umuman, mamlakat hukumatining rolini va shu bilan birga, mas'uliyatini kuchaytirish; sud hokimiyatini mustaqilligi va erkinligini mustahkamlashga qaratilgan aniq, qonunniy chora – tadbirlarni amalga oshirish.

Nohukumat jamoat tuzilmalarini shakllantirishda ba'zi masalalar bizni qiynayapti, ya'ni homiylik ko'magida tuzilgan nodavlat notijorat tashkilotlarini tekshirish natijasida, ular ruyxatdan o'tish chog'ida taqdim etgan nizom va dasturlari doirasidan anchagina chetga chiqib ketmoqda va muayyanbuyurtmaga asoslangan maqsadlarni ko'zlammoqda. Bu borada amalag oshirilayotgan ishlar

yoshlarni ham chetlab o'tmayapti. Yoshlarni huquqiy madaniyatini rivojlantirishda yo'l qo'yilayotgan kamchiliklarni bartaraf etish buyicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustda «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida»gi 453-soni qarorida¹ «fuqarolarimiz ayniqsa yosh avlod qalbida milliy tafakkur va sog'lom dunyoqarash asoslarini mustaxkamlash, ularning ongli yashashga, o'z fikriga ega bo'lishda, turli ma'naviy tajovuzlarga qarshi sobit tura olishga qodir bo'lgan irodali, fidoyi va vatanparvar insonlar etib tarbiyalashga qaratilgan amaliy tavsiyalar tayyorlash» masalasiga alohida e'tibor qaratish ko'rsatilgan. Sud huquq tizimini isloh qilish va yanada liberallashtirishga alohida ahamiyat berildi. Sudlarning jinoiy, fuqarolik va xo'jalik ishlari bo'yicha ixtisoslashuvi amalga oshirildi. Qonunchilikka binoan sud ishlarini appelyasiya va kassasiya tarzida qurib chiqish institutlari joriy etildi, tergov-surishtiruv va kishilarni hibsdan saqlash muddatlari sezilarli darajada qisqartirildi, ishlarni sudlarda ko'rib chiqishning qat'iy muddatlari belgilandi. Shuni ta'kidlash lozimki, qonunchilikda odil sudlovni amalga oshirish shakllaridan biri – yarashuv institutini joriy etilishi qonuniylikning mustaxkamlashda ijobiy omil bo'ldi. Yana bir o'ta muxim masala – sud va huquqni muhofaza qilish organlari hodimlarining mas'uliyatini oshirish haqida alohida to'xtalish o'rinli. Bu sohada xizmat qiladigan odamlar o'zining professional va fuqarolik burchini bajarishda yo'l qo'yiladigan kamchiliklar yoshlarimizning adolatga ishonchi qay darajada bo'lishini belgilaydi. Birinchi Prezident I.A.Karimov O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi, Vazirlar Maxkamasi va Prezident devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasida ushbu muhim masalaga alohida urhu berib, ushbu davrning muhim dasturiy vazifalari sifatida «siyosiy va iqtisodiy hayot, davlat va jamiyat qurilishining barcha jabhalarini yanada demokratlashtirish va erkinlashtirish, mustaqil sud tizimini mustahkamlash, inson huquq va erkinliklarini ishonchli

¹ «Миллий ғоя тарғиботи ва маънавий – маърифий ишлар самарадорлигини ошириш тўғрисида». 451-сонли ПҚ, 2006 й. 25 август.

himoya qilish, fuqarolarning siyosiy, iqtisodiy faolligini oshirish, fuqarolik jamiyati asoslarini shakllantirishdan iborat»¹ ekanligini ta’kidladi.

2. O’zbekistonda demokratik yanilanishlar jarayonini chuqurlashtirish va fuqarolarning erkinliklarini ta’minlashning g’oyat muhim sharti – bu ommaviy axborot vositalarini rivojlantirish uchun demokratik andozalarni joriy etish buyicha aniq va izchil choralarni amalga oshirishdir.

O’zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining XIV bob, 67 – moddasida ommaviy axborot vositalari qonunga muvofiq ish yuritishi va ular ustidan senzura yo’l qo’ymasligi ko’rsatib o’tilgan². Bu boradagi asosiy vazifa mamlakatimizda islohotlarni chuqurlashtirish jarayonining muhim tarkibiy qismi bo’lmish matbuot, televideniye, radio faoliyatini yanada liberallashtirish, ularning mustaqilligi va erkinligini amalda ta’minlashdan iborat. Bu borada avvalo, ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta’minlash kerak. Bu ularning mustaqil faoliyat yuritishi va rivojlanishi uchun omil bo’lishi lozim. Biz matbuot va axborot erkinligining kafolatini bozor munosabatlari, axborot maydonida sog’lom raqobat tamoyillarining rivojlanishida ko’ramiz. Bugungi kunda davlat televideniyesi negizida jamoatchilik televideniyesi kanalini bosqichma – bosqich shakllantirish masalasi ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zamonaviy axborot texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish zarur.

Yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirishda ommaviy axborot vositalari ta’sir mexanizmi vazifasini bajaradi. Ya’ni yangi taxrirdagi qonunlar to’g’risidagi ma’lumotlarni xalqqa yetkazib berishda ham matbuotni roli oshmoqda. Yoshlarimizda huquqiy madaniyatni yanada oshirish sharoitida yuksak saviyali telekg’rsatuvlar, maqolalar, reportajlar olib borish amalga oshirilayapti, lekin bu borada amalga oshirilayotgan ishlar maqtanishdan boshqa narsa emas. Eng katta muammo bu tanqidiy ruhdagi ko’rsatuvlar juda kam ko’rsatilayotganidadir. Bu borada tijorat va xududiy nodavlat teleradiostudiyalarining faoliyatini yuritishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratishdan iborat.

¹ И.А.Каримов.Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли.-Т.Ўз-н. 2007 й. 30-31,48 боб.

² Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. Тошкент. «Ўзбекистон» нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2008й.

3. Navbatdagi o'ta muhim masala – tashqi siyosatimizning ustuvor yo'nalishlarini tashkil etadi. O'zbekistonning jahondagi obro' – e'tibori yuksalib borayotgani eng avvalo:

– Yurtimizda demokratik va bozor iqtisodiyoti islohotlarini amalga oshirish natijasida qo'lga kiritilayotgan ulkan ijobiy o'zgarishlarda, ularning halqaro hamjamiyat tomonidan e'tirof etilishida mujassam bo'ladi;

– Bu – davlatimizning jahon ahliga yaxshi ma'lum bo'lgan, mintaqamizda barqarorlik va havfsizlikni mustahkamlashga qaratilgan amaliy samarasida o'z ifodasini topmoqda;

– Va nihoyat, bu – mamlakatimizning halqaro siyosat maydonida olib borayotgan har tomonlama puxta ishlangan, chuqur uylangan tashqi siyosatining natijasi sifatida namoyon bo'lmoqda. Markaziy Osiyoda tinchlik va barqarorlikni saqlash, bu mintaqani barqaror havfsizlik hududiga aylantirishni tashqi siyosatimizning muhim ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mintaqamizda mavjud ahvolni baholar ekanmiz, Afg'onistondagi vaziyatni barqarorlashtirish va qayta tiklash borasida davom etayotgan ijobiy jarayonlar bilan bir qatorda, mintaqada strategik mavhumlik saqlanib qolmoqda. Jumladan halqaro terrorizm, ekstremizm, narkoagressiya va mintaqaviy havfsizlikka nisbatan boshqa transmilliy tahdidlar hamon saqlanib qolmoqda. Bu borada «Yoshlar yili» davlat dasturi to'g'risidagi 805-sonli¹ Prezident qarorini misol keltirish mumkin. Ya'ni yosh avlodni hayotga qat'iy e'tiqod va qarashlar ruhida, mentalitetimizga yot bo'lgan zararli ta'sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyala, yoshlarda sog'lom turmush tarziga intilishni shakllantirish, OITS, giyoxvandlik, kashandalik va boshqa zararli odatlarga qarshi kurash bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini amalga oshirish, yoshlarning bo'sh vaktini mazmunli tashkil etish, yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart – sharoitlar yaratishdan iboratdir.

¹ «Ёшлар йили» давлат дастури туғрисида Президент И.А.Каримовнинг № 805 – сонли қарори. 2008 йил 29 феврал

Tashqi siyosatimizning muhim ustuvor vazifasi haqida so'z ketganda, avvalo O'zbekiston Respublikasi o'z fuqarolarini chet elda ham huquqiy himoya qilishi Bosh Qomusimiz – Konstitusiyasda ham kursatib o'tilgan. Hozirgi kunda chet ellarda ishga borib ishlab yurgan fuqarolarimizning ko'rchiligini yoshlar tashil etadi. Ularni chet ellarda huquqiy himoya qilish borasida hukumatimiz tomonidan muayyan huquqiy normalar ishlab chiqilmoqda va amalga qiritilmoqda, lekin ochiq haqiqatni aytish kerakki, chet ellarda ishga borib aldanib yurganlar qanchani tashkil etmaydi. Bu borada yoshlarimizni chet elda huquqiy, kerak bo'lsa moddiy ta'minlab ularni huquqiy himoya qilish borasida bir qancha kamchiliklar mavjud.

Bugungi kunda halqaro terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurash dunyo mamlakatlarini birlashtiradigan asosiy omil bo'lib qolmoqda deydilar¹: - I.A.Karimov o'zining «O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida» deb nomlangan asarida.

Navbatdagi ustuvor vazifalardan biri – bozor iqtisodiyotini chuqurlashtirish va iqtisodiyotni yanada erkinlashtirishdan iborat. Mamlakatni bodernizasiya qilish va aholini munosib turmush sharoitini yaratib berish borasida o'z oldimizga qo'ygan maqsad va vazifalarimiz hamda mintaqa va jahon bozorlarida ruy berayotgan o'zgarishlar, kuchli talab va raqobat iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishni obyektiv shart qilib quymoqda. Ishlab chiqarishning jadal modernizasiya qilinishi, zamonaviy quvvatlarning ishga tushirilishi istemol bozorini sifatli va raqobatga bardoshli mahsulotlar bilan to'ldirish imkonini bermoqda. Bu borada hali yechilmagan juda ko'p muammolar bor. Ya'ni, eski ma'muriy – taqsimot tizimi qoliplaridan butunlay voz kechish, davlatning iqtisodiyotga aralashuviini cheklash, erkin tadbirkorlik faoliyati uchun amaliy kafolatlarni ta'minlash, iqtisodiyot va biznesni barqaror rivojlantirish, to'la qonli bozor infratuzilmasini shakllantirish yo'lidagi mavjud g'ov – to'siqlarni bartaraf etishimiz zarur. Bu borada shuni alohida ta'kidlash lozimki, yoshlarimizda nafaqat huquqiy madaniyatni shakllantirish va muammolarni hal etish, balki iqtisodiy madaniyatini shakllantirishga ham alohida e'tibor qaratish lozim. Barkamol

¹ И.А.Каримов. «Ўзбекистон демократик таракқиётнинг янги босқичида».-Т.»Ўзбекистон».2005 й.

yoshlar iqtisodiy madaniyatini shakllantirishda oddiy iqtisodiyot emas, balki yuqori texnologiyaga, intellektual salohiyatga asoslangan madaniy iqtisodiyot istiqbolining strategik yo'nalishidir. Iqtisodiy ma'naviyat omilining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va roli faqat barkamolyoshlarni tarbiyalashga o'z xissasini qo'shish bilan cheklanmaydi, balki bu jarayon mamlakatda iqtisodiy xafsizlikni ta'minlashga xam hizmat qiladi¹. Ya'ni yoshlarimiz iqtisodiy madaniyatli bo'lsa, oddiy haridda, ishlab chiqarish korxonalarida ishlashda o'z salohiyatini ko'rsatadi. Muxum ustuvor vazifalardan biri – bois va moliya tuzumlaridagi isloxlarni chuqurlashtirish. Bu moliya va bank tuzummalarining qat'iy pul kredit siyosatini o'tkazish, inflyasiya darajasini baqororligini, milliy valyutamiz va uning almashuv kursi mustahkamligini saqlashdagi mas'uliyatini oshirish. Tan banklarni kapitallashtirish, ularning nizom va aylanma fondlarini ko'paytirish va mablag'larini investisiya maqsadlariga birinchi navbatda, real iqtisodiyotga yo'naltirishga qaratilgan aniq chora – tadbirlar ko'rish haqida bormoqda. Yuksak rivojlangan mamlakatlardagi tijorat va xususiy banklarning mijozlarga xizmat ko'rsatish borasidagi tajribalarini sinchiklab, yanada keng o'rganish, xo'jalik subyektlari va aholining banklarga nisbatan ishonchini oshirishga erishish kerak.

Navbatdagi ustuvor vazifa – uy-joy – kommunal xejaligini isloh qilishga nihoyatda e'tibor qaratishdan iborat. Kommunal xizmatlar, ayniqsa, issiqlik energiyasi, issiq va sovuq suv iste'molini hisobga oladigan asbob-uskunalarini yetarli darajada emasligi hamon jiddiy muammo bo'lib qolmoqda. Bu esa ana shu resurslarning ko'plab isrof bo'lishiga, ta'riflarning asossiz o'sishiga, axoli qarzdarligining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Prinsiplar muxum ustuvor vazifalardan biri – soliq siyosatini yanada takomillashtirishdar. Shunga yerishmog'imiz kerakli, har bir soliq to'lovchi, u xaqjismoniy xos yuridik shaxs bo'lsin soliq to'lashdan bo'yin to'vlamasdan, daromatlarini yashirishga urinmasdan, aksincha o'z ishlab chiqarishini rivojlantirish va daromatlarini oshirishga intilsin.

¹Ёшлар онгади иктисодий маданият функциясини шакллантириш. Нодир Абдусаматов. Ижтимоий фикр – инсон ҳуқуқлари. № 4. 2006 й.

Xulosa

Respublikamiz bugungi kunda yerkin fuqorilik, demokratik jamiyatini barpo yetar yekan, bunda huquqiy madaniyat masalasi bosh o'rinlardan birini egallamoqda. «Jamiyat va davlat taraqqiyotining hozirgi xolati huquqiy munosabatlar barcha ishtirokchilarining huquqiy madaniyatini, huquqiy savodxonligini har tomonlama oshirishni talab qilmoqda. Yuksak huquqiy madaniyat demokratik jamiyat poydevori hamda huquqiy tizim yetukligining ifodasidir» – deb ko'rsatiladi jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturida¹.

Jamiyatni modernizasiya qilish va yangilash sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyatini oshirish muammolari davlat ishidagi muammo bo'lgani uchun ham, uni barcha ijtimoiy institutlar tuzumining o'zaro g'amkorligi bilangina hal yetish mumkin. Bu mammoni hal etishda asosiy o'zak – ta'lim muassasalari bo'lsada, oila maxalla, jamoat tashkilotlari, huquqiy targ'ibot organlari yordamchi subyektlar hisoblanadi. Bu subyektlarning faoliyatiga bevosita yordam beruvchilar yoshlarning o'zlari hisoblanadi. Chunki ularning huquqiy bilimlari qay darajada egallashlari, olgan bilimlarini hammaga tadbiiq etishlari bevosita o'zlariga bog'liqdir.

Xususan bugungi kunda, ya'ni buyuk kelajakning poydevari ko'rinayotgan bir pytda yoshlarning huquqiy ongi, huquqiy madaniyatini o'stirish ularning huquqiy madaniyatini boyitish asosiy vazifalardan biriga aylandi. Bu bilimlarningsamara berishi yesa ularni hayotga qanchalik to'g'ri tadbiiq yeta bilishga bog'liqdir. Shuning uchun ham O'zbekiston Respublikasi Birinchi Perizedenti I. A. Karimov mustaqil O'zbekistonda yoshlar tutgan o'rnini aloxida ta'kidlab har bir insonning, ayniqsa endigina xayotga qadam qo'yib kelayotgan yoshlarning ongiga shunday fikrni singdirish kerakki, ular ular o'rtaga qo'yilgan maqsadlarga erishishi o'zlari bog'oliq ekaanligini anglab yetishlari kerak»² - degan edilar.

¹ Ўзб.Рес. Олий Мажлиси Ахборотномаси.-Т. 1997 й. № 23. 33-с

² И.А. Каримов Ўзбекистон миллий итиқлол ва тараққиёт йўли Т. 1996 - йил Т 1 175 бет

Jamiyatni molernizasiya qilish va yangilash sharoitida yoshlarni huquqiy madaniyatini nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilib quyidagi taklif va xulosalarga keldim; birinchidan , umuminsoniy qadriyatlariga asoslangan huquq mafkurasini shakllantirish huquq mavjudligi uning urf odatlar, ma'naviy – ma'daniy qadriyatlar negizidaligidir. Ikkinchidan, Yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishning o'ziga xos tomonlarini shart – haroitlarini chuqur ilmiy tahlil qilib, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirish o'ziga xos tomonlarini shart – sharoitlarini chuqur ilmiy tahlil qilib, yoshlarda huquqiy madaniyatni shakllantirishda ularning obyektivlik va subyektivlik, asta – sekinlik, alohidalik, umumiylik xususiyatiga ega ekanligini aniqladim;

uchinchidan, yoshlarda huquqiy madaniyat ijtimoiy yagona madaniyat tizimining tarkibiy qismi sifatida siyosiy, ma'naviy – ahloqiy, tinchlik madaniyati bilanuzviy aloqada ekanligini shakllantirish, ma'naviy ahloqiy madaniyat huquqiy, siyosiy va tinchlik madaniyatini shakllantirishda birlamchi harakterga ega.

to'rtinchidan, huquqiy madaniyat muammosini sinfiy yondashuv asosida emas, balki umuminsoniy qadriyatlar nuqtai-nazaridan kelib chiqqan holda o'rganishga asoslanish lozim va unda tinchlik madaniyatining o'ziga xos o'rni bor;

beshinchidan, yoshlarda huquqiy tarbiya samaradorligiga alohida e'tibor berish kerakligi. Yoshlarning huquqiy tarbiyasining samaradorligi deganda, mavjud tarbiya vositalaridan unumli foydalangan holda, optimal mudaatda va eng xam ma'naviy, moddiy va tashkiliy harajatlar bilan yoshlarning huquqiy bilimlarni egallashlarini, ularning e'tiqodi, asoslari va amaliy harakati ko'rsatmalari jamiyat talablari bilan muvofiqlashganligi tushuniladi.

oltinchidan, yoshlarning huquqiy madaniyati past darajada ekanligi va buning sabablari o'rganilar ekan, asosiy sabalardan biri ularning o'z huquqlarini yetarli darajada bilmasligi va bilishga harakat xaam qilmaydigan yoshlarimizning uchrashidir. Yoshlarda huquqiy madaniyatni yanada oshirishga salbiy a'sir etuvchi omillardan biri jamiyatda qonunlar ijrosi va nazorati yetarli darajada emasligi yoshlarni huquqiy negilizmning vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda; ayrim huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mansabdor shaxslar tomonidan bo'layotgan

huquqbuzarliklar, qonunlarni chetlab o'tishlar; oilada nosog'lom vaziyatlarning vujudga kelishi; yoshlarda bo'sh vaqtlar uchun qulay shart-sharoitlar yetarli darajada yaratilib berilmayotganligidir.

Jamiyatni modernizasiya qilish va yangilash sharoitida yoshlarning huquqiy madaniyatini yanada oshirish muammolaridan biri sifatida oila va jamoatchilikni o'rni tahlil qilindi va bu borada oilada huquq va huquqbuzarlikka bo'lgan munosabat yoshlarning xuddi shu munosabatini ham hisobga olish darkor. Yoshlarda huquqiy madaniyatni oshirishda yuo'layotgan muammolar sirasiga ommaviy axborot vositalarini bu borada olib borayotgan ishlarida huquqiy axborotlar, targ'ibot va tashviqot zerikarli, bir tomonlama yoki faqat faktlari bilan chegaralanib qolganida ko'rishimiz mumkin. Yoshlardagi huquqiy madaniyatni oshirish muammosi bilan birgalikda, ularni kasb-hunar tanlashda axborot taqchilligi, maktab bitiruvchilari kasb-hunar tanlashda pedagoglar, psixologlar va ota-onalar yordamiga muxtoj. Shu bilan birgalikda yoshlarda iqtisodiy madaniyatni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi deb uylayman. Buning o'ziga xos sabablari mavjud. Yoshlarimizda iqtisodiy madaniyatning uyg'un rivojlanishi: moddiy va madaniy madaniyat, ijtimoiy va shaxsiy manfaat, ichki ma'naviy dunyo va tashqi qiyofa, so'z va ish birligi, tadbirkorlar o'rtasidagi ishonch shuningdek iqtisodiy, siyosiy, ahloqiy, huquqiy, badiiy, diniy faoliyat turlari va ong shakllari hamohangligi va yaxlit taraqqiy etishi milliy g'oyalar asosida amalga oshiriladi. «Moddiy va madaniy ne'matlarning hammasi birgalikda uyg'unlashgan chog'idagina, haqiqiy baxt saodatga erishish mumkin» – degan edi Farobiy.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. I.A.Karimov. O'zbekiston o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. T.: «O'zbekiston». 1992. – b
- 2 I.A.Karimov. O'zbekiston kelajagi buyuk davlat. T.: «O'zbekiston». 1992. 36– b
- 3 I.A.Karimov. Vatan sajdagox kabi muqaddasdir. T.: «O'zbekiston». 1996. – b
- 4 I.A.Karimov. YAngicha fikrlash va ishlash davr talabi. T.: «O'zbekiston». 1997. – b
- 5 I.A.Karimov.O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida havfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari . T.: «O'zbekiston». 1997. – b
- 6 I.A.Karimov. YUNESKO Ijroiya Kengashining sessiyasining 155-yakunlovchi majlisida so'zlagan nutqi. Xalq so'z. 1998 y. 7 noyabr.
- 7 I.A.Karimov. Ma'naviy yuksalish yo'lidan. T.: «O'zbekiston». 1982.-254 b
- 8 I.A.Karimov. Ozodva obod Vatan, erkin va farovon hayot – pirovard maqsadimiz. // Xalq so'zi. 2000.23 yanvar.
- 9 I.A.Karimov. Bizning bosh maqsadimiz – jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizasiya va isloh etishdir. T.: «O'zbekiston». 2005. 51-56 b
- 10 I.A.Karimov. O'zbekiston demokratik taraqqiyotning yangi bosqichida. T.: «O'zbekiston». 2005. 60-61b
- 11 I.A.Karimov. O'zbekistonnnig 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi, Vazirlar Maxkamasi va Prezident devonining O'zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruza. T.: «O'zbekiston». 2007.
- 12 I.A.Karimov. Asosiy maqsadimiz – yurtimizda erkin va obod, farovon hayot barpo etish yo'lini katiyat bilan davom ettirishdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasining qabul qilganligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. // Xalq so'zi. 2007 y. 8 dekabr.
- 13 I.A.Karimov. Vazirlar Mahkamasining 2007 yildagi mamlakatni ijtimoiy – iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yil iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidan ma'ruzasi. // Xalq so'zi2008 y 8 fevral.
- 14 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlisga Murojaatnomasi . 22.12.2017
- 15 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Parlamentga Murojaatnomasi/ Xalq so'zi, 2018, 29 dekabr.
- 16 Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz / Sh.M.Mirziyoyev. – Toshkent : O'zbekiston, 2017.
- 17 Mirziyoyev, Shavkat Miromonovich. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – Toshkent : “O'zbekiston”, 2017.

- 18 Mamlakatimizni 2016 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning asosiy yakunlari va 2017 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining kengaytirilgan majlisidagi ma'ruza. 2017 yil 14 yanvar. Toshkent: O'zbekiston, 2017.
- 19 Sh.M.Mirziyoev. 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishidan iborat Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni
- 20 O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: «O'zbekiston». 2008 y.
- 21 Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisining axborotnomasi. 1997 y. № 9
- 22 O'zbekiston Respublikasi «Ta'lim to'g'risida»gi qonun. 1997 y. 29 avnust O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi. 1997 y. № 9
- 23 O'zbekiston Respublikasi «Fuqarolarning o'zini-o'zi boshqarish organlari to'g'risida»gi qonun. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi axborotnomasi. 1999 y. № 5
- 24 «Tinchlik madaniyati va YUNESKONing a'zo davlatlardagi faoliyati to'g'risida» Toshkent deklarasiyasi. Xalq so'zi. 1998 y. noyabr.
- 25 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasini o'rganishni tashkil etish to'g'risida» farmoyishi. 2001 yil 4 yanvar. Xalq so'zi 2001 yil 5 yanvar.
- 26 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Milliy g'oya targ'iboti va ma'naviy – ma'rifiy ishlar samaradorligini yanada oshirish to'g'risida» 2006 yil 25 avgust, 451-sonli qaror.
- 27 Kamolot yoshlar ijtimoiy harakatini qo'llab-quvvatlash va uning faoliyat samaradorligini yanada oshirish to'g'risida» №486-sonli Prezident Qarori. 2006 yil 10 oktyabr
- 28 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «YOsh oilalarni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» 2007 y 18 maydagi qarori.
- 29 «Bola huquqlari kafolotlari to'g'risida»gi qonun. 2008y
- 30 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «YOshlar yili davlat dasturi to'g'risida»gi 805-sonli qarori. 2008 yil 29 fevral
- 31 F. Qlichev. Zamon va makon tahlili. T: 1992 yil.
- 32 Amir Temur o'g'itlari. Tuzuvchilar B. Ahmedov, A.Aminov T: «Navro'z» 1992 yil.
- 33 Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. T: «Meros». 1993 yil
- 34 Mahmudov R. Huquq va madaniyat. T: «O'zbekiston». 1993y.
- 35 U. Tojixonov. O'zbekistonda mustaqil davlatchilikning huquqiy – ma'naviy muammolari. T: «O'zbekiston». 1996 y.
- 36 Huquqiy demokratik islohotlar. A.Saidov. T: O'zbekiston 1997 y. 192-b
- 37 A.Saidov, S.Sultonov. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi va inson huquqlari. T: Adolat. 1998 y. 178 b
- 38 U.Tojixonov. A.Saidov. Huquqiy madaniyat nazariyasi. Darslik. T 3.2 . O'zbekiston Respublikasi IIV akademiyasi. 1998 y.
- 39 Z.Islomov. Davlat va huquq: umumnazariy masalalari. T: Adolat. 2000 y.

- 40 O. Karimov. Huquqiy tarbiya metodikasi. T: Nizomiy nomidagi TDPU. 2000 y.
- 41 Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillari. O'zbekiston milliy faylasuflar jamiyati. 2001 y.
- 42 O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 2005y . 11-qism.
- 43 F.Qilichev. Huquqiy ong va madaniyat umummaf-kuramizning ajralmas qismi. // Hayot va qonun. -1999, №11-12, 2-10s
- 44 R. Turdiboev. Huquqiy madaniyat va yoshlar. // Hayot va qonun. -1998, № 11, 64-68-b
- 45 A.Muminov. Boqiy qadriyatlar: Siyosiy va huquqiy madaniyat. //Jamiyat va boshqaruv. -1998. № 1. 21-22-b
- 46 S. Mirsafoev. Huquqiy ong va madaniyat milliy mafkuraning tarkibiy qismidir. // Xalq so'zi. – 1998. 27 avgust.
- 47 A.SHaripov. YOshlarning huquqiy madaniyati. //Huquq-pravo-Low. 1998. № 4. 85-86-b
- 48 K.Holmo'nimov. YOshlarni huquqiy tarbiyalash. // Hayot va qonun. 1998. № 4. 20-23-b
- 49 R. Turdiboeva. YOshlarda huquqiy, siyosiy va ahloqiy madaniyatning o'zaro aloqadorligi. // Qonun himoyasida. 200 № 1
- 50 Nodir Abdu samedov. YOshlar ongida iqtisodiy madaniyat funksiyalarini shakllantirish. // Ijtimoiy fikr – inson huquqlari. № 4. 2006.
- 51 Prezident I.A.Karimovning «Mamlakat taraqqiyoti va halqimizning hayot darajasini yuksaltirish – barcha demokratik yangilanish va iqtisodiy islohotlarimizning pirovard maqsadidir» deb nomlangan kitobi to'g'risida. // Fuqarolik jamiyati.Umumnazariy ijtimoiy – siyosiy – huquqiy jurnal. № 2(10). 2007 y.
- 52 Muhammad Quronov. Aholining huquqiy madaniyatini yuksaltirish: targ'ibot – tarbiya – tajriba. // Fuqarolik jamiyati. 2007 y.
- 53 Miravzal Miraqulov. Jamoatchilik nazoratida yoshlar ishtiroki. // Fuvarolik jamiyati. 2008 yil.
- 54 Muhammadilhom Yo'ldashev. Iste'dodli yoshlar tarbiyasi: reallik va yuksalish imkoniyatlari. //Fuqarolik jamiyati. 2008 yil.
- 55 Shuxrat Oripov. Globallashuv, milliy qadriyatlar va yoshlar. // Fuqarolik jamiyati. 2008 y.